

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»

Pedagogika fakulteti dekani,

dotsent: _____ X.Mavlyanov

«___» _____ 2017 y.

5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

yo'nalishi TS-54 – 2013 guruh bitiruvchisi

O'rmonova Mohinur Mohirjon qizining

«PORTRET KOMPOZITSIYSINI YARATISHDA
FOTODAN FOYDALANISH»

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»

Tasviriy san'at va muhandislik
grafikasi kafedra mudiri:

BMI rahbari: v.b. dotsent
H.I Rizayev

_____ dots. O'.Abdullayev

«___» _____ 2017 y

Namangan - 2017

MUNDARIJA

1.	KIRISH.....	3
2.	I BOB. Portret janrida tarixiy shaxslar obrazi.....	9-32
3.	Portret janri va tarixi.....	9
4.	Portret kompozitsiyasini yaratish.....	18
5.	Tasviriy san'atda tarixiy shaxslar obrazi.....	26
6.	II. BOB. Tarixiy shaxslarni yaratishda fotodan foidalanish.....	33-47
7.	Portret kompozitsiyasini yaratishda fotodan foydalanish usullari, yo'llari, yutuq va kamchiliklari.....	33
8.	Bibixonim timsoli.....	37
9.	Bibixonim siymosini yaratish.....	42
10.	XULOSA.....	48
11.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	51
12.	ILOVALAR.....	53

MAVZU: PORTRET KOMPOZITSIYASINI YARATISHDA FOTODAN FOYDALANISH.

REJA:

KIRISH.

ASOSIY QISM:

I BOB. PORTRET JANRIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI.

- 1.1-&. Portret janri va tarixi.
- 1.2-&. Portret kompozitsiyasini yaratish.
- 1.3-&. Tasviriy san'atda tarixiy shaxslar obrazni.

II. BOB. TARIXIY SHAXSLARNI YARATISHDA FOTODAN FOYDALANISH.

- 2.1-&. Portret kompozitsiyasini yaratishda fotodan foydalanish usullari, yo'llari, yutuq va kamchiliklari.
- 2.2-&. Bibixonim timsoli.
- 2.3-&. Bibixonim siyimosini yaratish.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.

ILOVALAR.

KIRISH.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk yillaridayoq “Dunyoni ma’rifat va madaniyat turli taxdidlardan qutqarib qoladi” – degan shior ostida birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning bevosita ko‘rsatmasi asosida yurtimiz kelajagi bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk bilimli, sog‘lom va O‘zbek diyorining milliy an’analariga sodiq “Barkamol avlod” – qilib tarbiyalashga bel bog‘landi.

Davlatimiz va hukumatimiz iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklardan o‘tish chog‘ida ham yoshlar tarbiyasiga juda katta e’tibor qaratib o‘quv muassasalarining juda eskirgan ashyoviy tizimida misli ko‘rilmagan tubdan yangilanish strategiyasini ishlab chiqib bunyodkorlik ishlarini boshlab yubordi.

Barcha viloyatlarda, tumanlarda zamonaviy maktab va kollejlar va akademik litseylar barpo etildi. Zamonaviy orgtexnika, sport anjomlari va maxsus texnik jihozlar bilan ta’minlandi.

O‘zbekiston mustaqil rivojlangan respublika sifatida o‘z taraqqiyot yo‘lidan odimlab borayotganligi boshqa sohalarda bo‘lgani kabi san’at va madaniyat sohasiga ham o‘z ta’sirinni o‘tkazmoqda. Bu o‘zgarishlar bevosita tasviriy san’at o‘quv fanida ham sekin-asta ro‘y bermoqda.

Mamlakatimizda san’at va madaniyatga katta e’tibor berilib, jamiyatda vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini mustahkamlash borasida juda ko‘plab e’tiborli ishlar amalga oshirilmoqda.

San’at tushunchasi juda keng ma’noni o‘z ichiga olib, inson jasoratining go‘zalligini, uning olıyanobligini, fidoiyligini aks ettiradi. San’atkor san’at obrazida ma’lum voqelikni aks ettiribgina qolmay, balki o‘z davri ijtimoiy g‘oyalarining ifodachisi, targ‘ibotchisi bo‘lib ham maydonga chiqadi.

Bizga ma’lumki bu borada O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimovning, “Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ta’limining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an’analarimizning saqlanishi , madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji bilan uzviy

bog‘liqdir”¹ degan so‘zlari bilan ma’naviyat cho‘qqisiga intilishga chorlaganlar. Buning uchun ta’lim olayotgan har bir talabaning san’atga munosabatini, mavjud iqtidorlik va ijodiy qobilyatini boyitib uni amaliy, nazariy, ilmiy jihatdan shakllantirish maqsad qilingan. Ta’limning samaradorlik mezoni uning xalqaro standartlar talablariga javob berishi bilan belgilanadi.

San’at turlaridan biri bo‘lmish tasviriy san’at esa ilm-fan kabi dunyonи, hayotni, tabiatni, xalqlar tarixini o‘rganishga xizmat qiladi. Ayni paytda tasviriy san’at asarlari kishilarning his tuyg‘ulariga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ham egadir. Kishilar tasviriy san’at asarlarini tomosha qilish orqali, ularda ifodalangan go‘zallikni ko‘rish orqali o‘z hayotlariga ana shunday go‘zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonlarni ko‘rib esa ularga o‘xshashga intiladilar.

Tasviriy san’at bir nechta janrlarga bo‘lingan bo’lib, portret janri eng asosiy janrlardan hisoblanadi. XVI asr ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro O‘rtal Osiyo badiiy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Portret janri san’ati rivoj topadi.

Xonlar portretlari ishlana boshladi. Abdullaxon, (Imomalixon), Imomqulxon portretlari shular jumlasidandir.

Shayboniyalar davrining mashxur musavvirlari Abdullo Buxoriy Manuchexr, Jamoliddin Yusuf kabi miniatyura ustalari ham tarix saxifalaridan munosib o‘rin egalladilar.

Ularning bizgacha yetib kelgan ayrim na’munalari yuksak did va ijodiy barkamol asarlardir.

Ashtarkoniylar davridagi notinchlik va ko‘tarilishlar natijasida ko‘pgina san’atkorlar, jumladan, miniatyurachilar o‘zga yurtlarga Boburiylar hukmronligidagi Hindistonga ko‘chib keta boshladilar. Muhammad Murod va Nodir Murod Samarqandiylar ana shular jumlasidandir.

¹I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda T. “O‘zbekiston”. 2000.

XIX asr ohiri XX asr boshlarida tasviriy san'at tarixida yana jonlanish ro'y berdi. Taraqqiyparvar o'zbek ziyyolilari bu san'at rivojiga e'tibor berib uning imkoniyatlaridan targ'ib va ma'rifat ishlarida foydalanishga intildilar.

XX asr o'zbek tasviriy san'atining shakllanish va rivojlanish davri bo'ldi. Milliy uslub rivojlanib bordi. O'zbek zamonaviy san'at uslubi Yevropa realistik san'at uslubi, yangi shakllanib kelayotgan avangard ko'rinishlariga tayangan holda shakllandi.

U yoki bu uslubni qaytarib va takrorlab emas balki davr talabi, g'oyaviy yuksalish va ijodkorning shaxsiy qarashi hamda professional mahorati asosida ishlanib, o'ziga xos qaytarilmas joziba kasb eta boshladi.

Tasviriy san'at juda ko'plab sohalarga bo'lingan bo'lib, ularga qarab, faqat maftun bo'lish, xayratlanish mumkin. Ulardan biri shubhasiz badiiy fotografiya san'atidir. Fotografiya – bu olamga fotograf nigohi bilan qarashdir. Fotografiya xotira, xis- hayajon, tomoshabin bilan tez muloqotga kiruvchi va san'at boshqa turlarining qurbi yetmaydigan rangtasvirga xos hujjatlilik hamdir. Hozirgi shiddatli zamonda fotografiya, keng ma'noda, jamiyat hayotining ko'zgusi sifatida qadrlidir. Badiiy fotoning muhim jihat shundaki, tasvirlar silsilasi tomoshabinda fikr uyg'otadi, uni xarakatga undaydi. Fotografiya "vaqt lahzalari"ni osongina orqaga qaytara olishi bilan kishilarni xayratga solidi.

Ba'zan esa fotolar yordamida rassom tasviriy san'at asari yaratishi ham mumkin. Bu jarayon ba'zan rassomning fotodan ilhomlanishiorqali sodir bo'lsa, ba'zan esa biror tarixiy jarayon yoki tarixiy shaxs aks etgan foto orqali turli kompozitsiyalarini yaratish imkonini beradi. Bizning mamlakatimizda ijodkorlar uchun yetuk tarixiy, badiiy saviyasi yuksak asarlar yaratish uchun yetarli darajada ashyoviy hamda, nazariy, badiiy tajribaga boy merosimiz bor.

Insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon va Vatanimiz san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarning his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini

bilish demakdir. Bu so'zsiz kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroficha yondoshishga yordam beradi.

Biz Mustaqillik davrlari tasviriy san'ati haqida gapirar ekanmiz, albatta vatanimiz san'ati o'tmishi va kechagi kunini ham eslab o'tishimiz, tarixiy manbalar asosida ular haqida ham holisona fikr-mulohazalar bildirishimiz lozim bo'ladi. O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z tarixini bilishi va uni asrab avaylashi lozim.

Bu borada biz bugungi kunda berilayotgan imkoniyatlarni nazarda tutib, dimlom ishi uchun tanlangan mavzu asosida tarixiy shaxs obrazini yaratishni maqsad qilib oldik. Bibixonim timsolini yaratish uchun esa Osiyo irqiga mansub ayollar fotosidan, o'sha davr liboslariga o'xshash liboslar fotolaridan foydalanishga harakat qildik.

Mavzuning dolzarbligi. Rivojlangan davlatlarning qatorida bo'lmish, ozod va obod yurtimizni istedod mafkurasidan batamom xalos etish uchun olim va ziyolilarning sayi harakati, keng jamoatchilikni buyuk ajdodlarimiz merosini o'rghanishga safarbar qilinib milliy tiklanish va dunyoga o'zbek diyorida yashab ijod qilgan juda ko'p qatog'on qurbanlarining pok nomlari tiklandi.

San'atning barcha barcha turlari qatori tasviriy san'at rivoji – uning dunyo yuzini ko'rishi uchun ham salmoqli ishlar olib borildi. O'zbekiston badiiy akademiyasi tashkil qilinib, juda ko'p yetukli san'at namoyondalari unga a'zo bo'ldilar. Faxriy akademiya vakillari ham o'tmishda va hozirda ijod qilgan munosib nomzodlar bilan boyitildi.

Vatanimiz O'zbekiston o'zining buyuk shaxslari va siymolariga ega bo'lib, bu siymolar insoniyat ma'naviyatining nodir zarvaraqlari sifatida boshqalarda hayrat uyg'otadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, insoniyat va millat takomili tarixni bilmaslik va o'rghanmaslik evaziga amalga oshirilmaydi. Har bir yosh avlod bizning tarixiy buyuk shaxslarimiz haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi va ular amalga oshirgan buyuk ishlar bilan tanishib, ulardan o'zlari uchun ma'naviy ozuqa olishlari lozim. Yoshlarning ongi, ruhiyatini poklash , hozirgi kundagi ma'naviy –

tarbiyaviy ishlarimizning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu esa avvalo tarixni yaxshi bilish va tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishni taqazo etadi. Bibixonim – Amir Temurning turmush o'rtog'i, o'z zamonasining yuksak irodali, farosatli, tadbirkor, maslahatdon va yetuk aql-zakovat sohibasi, shuningdek husn-latofat bobida ham benazr ayol bo'lgan. Bu buyuk ayol tarixda o'zining insonparvarligi, vatanparvarligi, mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lganligi, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turganligi bilan tarixda yaxshi nom qoldirgan. Har bir inson bu tarixiy shaxsni bilish orqali o'ziga juda ko'plab ma'naviy ozuqa oladi. Biz ham shuning uchun Bibixonim timsolini yaratish orqali yosh avlodga shunday go'zalva oqila ayolni tanitish va ularda yetarlicha tushuncha paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qilishini nazarda tutdik.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishida portret kompozitsiyasini yaratishda fotodan foydalanish orqali Bibixonim timsolini yaratishni maqsad qilib olindi. Shu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- Portret kompozitsiyasini yaratishni o'rganish.
- Portret kompozitsiyasini yaratishda fotodan foydalanish usullarini o'rganish.
- Bibixonim timsoli haqida ma'lumotlarga ega bo'lish.
- Bibixonim obrazini yaratishda fotodan foydalanish borasida izlanishlar olib borish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. 1341 – 1408 yillarda yashab o'tgan temuriy malika Bibixonim tadqiqotning ob'ekti sifatida qaraladi va shunga tayanib Saroymulkxonimni timsoli o'rganib, yaratiladi.

Mazkur tadqiqotda Amir Temur davriga va Bibixonim shaxsiga oid ma'lumotlar o'rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi tasviriy san'atning yangi sohalaridan bo'lmish badiiy fotografiya orqali portret kompozitsiyasini yaratish, Bibixonim timsolini yaratish uchun Osiyo irqiga

mansub ayolni foto protatip qilib olish va bu orqali tarixiy shaxs siymosini yaratilishi tadqiqotning yangiligidir.

Birituv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, fotodan foydalanish orqalitarixiy shaxs bo‘lmish Bibixonim portreti kompozitsiyasini yaratish, o‘zbek xalqi qalbiga shunday jasoratli, oqila va go‘zal ajdodimiz borligidan faxr hissini tuyish barobarida, tarixiy shaxslarimizga nisbatan hurmat hissini uyg‘otish bilan estetik tarbiya berishning nazariy ahamiyati ko‘zda tutilgan bo‘lsa, uni turli xil qarashlar, tarixiy ma’lumotlar, hamda izlanishlar samarasi o‘laroq moybo‘yoq orqali tasvirlash ishning amaliy ahamiyatini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy tarkibiy tuzilishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi – kirish, ikki bob, xulosa, ilovalar va adabiyotlar ro‘yhatidan iborat tarkibiy tuzulishga ega. Kirish qismida Mavzuning dolzarbliji, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ishning ob’ekti, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati asoslangan. Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishidan ko‘zlangan maqsad vazifalar bo‘yicha erishilgan natijalar umumlashtirilgan. Tadqiqot bo‘yicha yakuniy xulosalar berilgan. Shuningdek, ushbu bitiruv malakaviy ishi yuzasidan tegishli ilovalar hamda adabiyotlar ro‘yhati bilan ish oxiriga yetkazilgan.

I.BOB. PORTRET JANRIDA TARIXIY SHAXSLAR OBRAZI.

I.1.portret janri va tarixi.

Inson tabiatan ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shakllanib, faoliyat ko'rsatgani uchun uning obrazini yaratish ham shunchalik murakkablikni talab qiladi. Tasviriy san'atda bir qancha janrlar mavjuddir.

Janr deganda odatda, badiiy asarning ma'lum bir turi tushuniladi. Tasviriy san'atda turli-tuman janrlar mavjud bo'lib, ularni bir-biridan farqi mazmun yoki tasvirlash uslubida ko'rindi.

Tasviriy san'atning asosiy janrlari quyidagilardan iborat:

1. Portret
2. Tarixiy
3. Maishiy
4. Manzara
5. Animalistik
6. Natyurmort
7. Marina
8. Botal kabi janrlardan iborat.

Shulardan portret janri haqida so'z yuritamiz.

Portret janri – tasviriy san'atda eng murakkab janr hisoblanib, fransuzcha “portrait”, eski fransuzchada portraire – “chiziq yoki chegarani aks ettirmoq”, lotincha persona – “ shaxs, kishi ” – so‘zlaridan olingan bo‘lib , kishilarning chexrasini huddi o‘ziga o‘xshatib tasvirlash ma’nosini anglatadi.

Portret janrida real hayotda mavjud bo‘lgan yakka, ikki yoki bir guruh kishilar yoki rassom tasavvurida paydo bo‘lgan xayoliy qiyofalarning tasviri aks ettiriladi. Rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika , shuningdek, foto san'atining muhim janrlaridan biri hisoblanadi. Portret janrida insonning ichki va tashqi go‘zalligi, uning xarakteri ochib beriladi. Portret bilan haykaltaroshlikdagi portret bir-biriga yaqindek tuyuladi. Ularning birida tekis, kul rangli tasvir

bo`lsa, ikkinchisida boshning butun xajmiy shakli tasvirlanadi. Lekin buturdagi san`atlarga aloqador bo`lgan portretlar mazmun jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Portretda jonli ko`zning jozibasining, yuzga tushayotgan soya va nurlar farqini ranglar jilvasini, insonlarning ichki dunyosini, xarakatini ko`rsatishga qodirdir. Bundan tashqari portretda kolorit ham muhim o`rin egallaydi. Qadimiy Rus tasviriy san`atida XVIII-XIX asrlarda portret janri bir oqimda emas, balki bir necha tarmoqlarda amalga oshirila boradi.²

Partret insonning shunday tasviridirki, unda nafaqat tashqi qiyofa, balki ichki dunyo va psixologik xususiyatlar ham ochib beriladi.

Portret biror shaxsga xos bo`lgan tashqi qiyofani, uning ichki dunyosi, xarakterini aks ettirish bilan birga, ma'lum tarixiy davrga xos fazilatlarini ham siymolarda haqqoniy ifodalab beradi. Insonning ichki kechilmalarini uning yuz tuzilishi, nigohi, yurish-turishi va kiyimida ko`rish mumkin.

Portretni turli ko`rinishlari mavjud:

Samimi, mussavir tor doirada ma'lum bo`lgan insonga hos xususiyatlarni yanada bo`rttirib, oshkora ifodalaydi.

Tantanavor, ommaviy joylarga mo`ljallangan mashhur kishilar portretlari. Ulardan tasvirlangan insonning ko`rsatgan xizmatlari, jamiyatdagi o`rni, unga monant libos, interyer, buyumlar ifodalanadi;

Itimoiy, keng doiradagi hamjamiyat sinfining turmush tarzi;

Psixologik, unda xarakter yuksak badiiy mahorat bilan ifoda etiladi.

Portretda bosh va qo`lning bilakdan pastki qismi muhim ahamiyatga ega, surat chizayotgan kishi tomoshabin nigohini birinchi navbatda shu omillarga jalg qilmog`i kerak.

Insonga xos xarakterni ifodalashda qo`l katta ahamiyatga ega. Ko`pchilik odamlar qo`l imo-ishoralari ko`magida suhbatlashadilar va bu xususiyatlar ham xarakterni yoritishda yordam beradi

²B. Oripov. Tasviriy san`at asoslari. N. 2001 y.

Portert, inson qiyofasini tasvirlash uchun juda murakkab jarayondir. Portret inson obrazini yaratish tasviriy san`atda eng murakkab janr hisoblanadi. Har bir rassom portret ishlaganda uning kompozitsion yechimi, g`oyasi va mazmunini olib berishga xarakat qiladi. Asarni ishlash jarayonida har biri ijodkor uning koloritiga, rang nisbatlariga va qo`shimcha detallarga e`tibor bergen holda, uning kompozitsion yechimini topdi.

Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli) ga aynan o`xhashligidir. Ijodkor portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma`naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o`rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy - iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati, Portret ishslash uchun tanlangan materiallari esa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas o`ziga xoslik baxsh etadi. Tarixan portretning xilma – xil tur va ko`rinishlari shakllangan: ishlanish usuli, bajaradigan vazifasi, shakli, mazmuniga ko`ra, dastgoh (kartina, byust, grafika varag`i) va monumental (monu-mental xaykal, freska, mozaika), miniaturali, ishqiy, tantanavor parad va intim, hajviy, satirik portret tarzida tasvirlanuvchining faqat bosh qismi , beligacha, butun bo`y-basti bilan old va yon tomonidan ishlanishi mumkin. Shuningdek , turli tarixiy davrlarda nishon, tanga, medallar yuzasiga (medal yasash san`ati) ishlangan, gemma (gliptika), medalyonlardan miniatura portret keng tarqalgan.

Portret janridagi bir asarda ko`pincha bir necha janrlar qo`shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, ya`ni atrof- muhitni aks ettirmasdan) , tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muxitda ishlanishi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda Portretni portret va portret – kartina (janqli portret) ga ajratiladi. Portretning keng tarqalgan turlaridan biri – avtoportretdir. Avtoportret bu- rassom o`zini o`zi oynaga qarab yoki o`zining fotosidan foydalanib chizishidir. Tasvirlanayotgan kishilar soniga ko`ra portret, yakka qo`shaloq va guruh portretlarga bo`linadi.

Portret san'ati bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, qadimda paydo bo'lgan. Misrda haykaltaroshlar odamning ichki hissiyotlariga chuqur kirib bormasalarda, uning tashqi qiyofasini yetarli aniqlik bilan o'xshatganlar. Grek ustalari esa xudolar va afsonaviy qahramonlarning, shoir, faylasuf va jamoat arboblarining siymolarini ideallashtirilgan holda tasvirlab o'zlarining go'zallik olamiga munosabatlarini plastik yechim bilan ifodalaganlar. Keskin psixologik harakterlilikni hayron qolarli darajada haqqoniyligi bilan qadimiy rim portret-haykallari ham alohida ajralib turadi. O'zining paydo bo'lishi bilan buyuk yangilik bo'lgan timsoliy-ramziy ahamiyatga molik bo'lgan portretlar Misrda eramizdan avvalgi IV asrlarda yaratilgan rangtasvir portretlari ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Keyinroq bu portretlar ular topilgan joyni nomi bilan "fayum portretlari" deb ataldi. Qadimgi Misrda portretning noyob na'munalari (haykaltaroshlikda – Exnaton, Nefertiti va boshqa haykallar) yaratiladi. Yunonistonda shoir, faylasuf va davlat arboblarining umumlashma, ideallashtirilgan haykal portretlari ishlanadi (haykaltarosh Alopekli Demetriy, Lisipp va boshqalar), ellinizm davrida dramatik obrazlar yaratishga intilish kuchaydi. Antik davr xaykaltaroshlik portreti qadimgi Rim san'atida yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, aniq shaxsga e'tibor oshdi. Portretda shaxsning individual fazilatlarini aniq ko'rsatish, ruhiy kechinmalarini ochish jarayoni sezilarli o'rin egalladi, haykal va byustlar bilan bir qatorda tanga va medallar, gemmalarga portret, shuningdek, rangtasvir portret ishlash keng tarqaldi. Dastgoh portretning rangtasvir na'munalari bo'lgan fayyum portretlari (Misr, 1 - 4- asrlar) ham antik san'at an'analari tasirida rivojlandi.

O'rta asrlarda qat'iy diniy qonunlar bilan cheklangan portret cherkov-me'moriy ansamblining ajralmas qismiga aylandi. Ijodkorlar portretda podsho, din ahllarining obrazlarini yaratdilar, diniy mazmundagi portretlarda aniq shaxslarning fazilatlari, xususiyatlarini ifodalaydilar. O'rta asrlar xitoy ustalari asarlarida aniq shaxslar ko'pincha o'ziga xos fazilatlari bilan, Yapon rassom va haykaltaroshlarining ayrim portretlarida o'tkir psixologik holat aks ettirildi.

Portret san'ati o'zining eng gullagan davrini Uyg'onish davrida oldi. Bu davrda oliy-yuqori yangilikning boshlanish sifatida inson shaxsining ulug'lanishi

san'atdagi olamshumul boylik va qahramonlik deb sanaldi. Uyg'onish davrida portretning rangtasvir, haykaltaroshlik va grafika turlari yuksak taraqqiy etdi. Faol , o'z qadr- qimmatini biladigan qo'rmas, jasur inson qiyofasi bu davrning bosh qahramoniga aylandi . Borliqni ilmiy asosda o'rganish va shu bilimlarni amaliyatda qo'llashga intilishlar portretning yangi tizimini yuzaga keltirdi. Endilikda tasvirlanuvchi noreal makon va muhitda emas, balki insonga yaqin bo'lgan tabiat qo'ynida aks ettildi.

Monumental rangtasvir asarlarining personajlar orasida rassom o'zining qiyofasini ham ishlay boshlaydi. Bu jarayon keyingi davr san'atida yanada rivojlan Tirildi (rassom Jotto, Mazachcho, A. del Kastano, D. Girlandayo, S.Bottichelli, Pyero dela Francheska, J. Bellini, haykaltarosh N. Pizano, Donatello, A. Verrokko, dastgoh haykaltaroshligida Deziderio da Settinyano, Antonio Rossellino, medallarda A. Pizanello).

Yuksak Uyg'onish davri buyuk ijodkorlari Leonardo da Vinci, Rafael, Jorjone, Titsian, Ya.van Eyk, Rogir van der Veyden, A. Dyurer, Katta Lukas Kranax, Kichik Xolbeyn va boshqalar Portret janridagi obrazlar mazmunini chuqurlashtirdilar, XVII – asrga kelib demokratik qarashlarning ortib borishi insonga chuqur muhabbat bilan sug'orilgan, nozik his-tuyg'ularni anglash va tasvirlashga qaratilgan to'loqonli va harakatga boy portretlarni maydonga keltirishdi. Rembrandt, Xale va boshqalar ijodida guruh portretlar yaratila boshlandi. Avtoportret shu izlanishlar mahsulidir. Rassom inson ruhida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z qiyofasida, qarash, yuzdagi mimik o'zgarishlarda ifodalashga harakat qildi. XVIII – asr portretlarida shaxsning ijtimoiy mavqeい, jamiyatdagи o'rni haqqoniy aks eta boshladi. (Fransiyada – J.B.S. Sharden, J.A ijodlarida)

XIX asr Portret san'ati uslublarga boy va rang-barang bo'lган. Klassitsizm, romantizm, tanqidiy realizm shu davrda ishlangan portretlarga ta'sir etdi. Inqilobiy ruh bilan sug'orilgan (J.L. David ijodida), ko'tarinki romantik ruhda ishlangan(T. Je-riko, E.Delakrua. O.A.Kipenskiy, K.P. Bryullov ijodlarida), kinoyaga boy (F. Goyya ijodida) asarlar Portret san'atini va uning rang-barangligini namoyon qildi. XIX asrning oxiri choragida Portret janrida tasvirlanuvchining ruhiy

holatlarini tabiat bilan bog‘lay boshladilar. Portret janrida ham impressionistlar E.Mone, O.Renuar, O.Roden va boshqalar, postimpressionistlar P.Sezan, Van Gog va boshqalar ijodida tasvirlanuvchining o‘zgarmas shakli orqali uning to‘laqonli obrazini yaratishga, shakllar harakatida dramatik holatlarni ko‘rsatishga intildilar. XX asr Portret san’ati murakkab va ziddiyatlidir. Bir tomonda realistik portret o‘z imkoniyatlarini yanada chuqurlashtirib, inson fe’lidagi butun nozik o‘zgarishlarni to‘liq ochishga, uning falsafiy dunyoviy o‘y – xayollarini, tasavvur va taxminlarini aks ettirishga, uning plastik tomonlarini kuchaytirishga intilsa (Germaniyada – K. Kol-vist, E. Barlax, Fransiyada – Sh. Despo, Pikasso, A. Matiss, Italiyada Modilyani, R. Guttuzo, Meksikada – D. Rivera, D. Sikeyros, AQSH da – E. Uayet, Yaponiyada – Seyson Maeda, Rossiyada – I.D. Shadr, M. V. Nesterov, P.D. Korin va boshqalar ijodida), ikkinchi tomonda shu davrda keng yoyila boshlagan modernizm uslubi portret janriga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Bu yo‘nalish tarafdorlari shu borada tajriba ishlarini olib borib shakl, chiziq, rang, faktura imkoniyatlaridan foydalangan holda obraz yaratishga harakat qildilar.

Sharq (O‘rta Osiyo, Afg‘aniston, Eron, Hindiston va boshqalar) miniatyura san’atida portretning nodir na’munalari yaratilgan (Masalan: Rizo Abbosiy va boshqalar ijodida). Jumladan, o‘zbek portret san’ati ham boy tarixga ega. Bu san’at na’munalari qadimgi va o‘rta asrlar san’atida uchraydi (masalan Yunon – Baqtriya, Xorazm, Kushon podsholarining haykal va tanga yuzalariga ishlangan bo‘rtma tasvirlari) , Amir Temur va Temuriylar, Shayboniylar hamda Boburiylar davri san’ati (komoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammasi Murod Samarqandiy va boshqalar) dagi miniaturalarda ma’lum darajada taraqqiy etgan. Nafis (mo‘jaz rasm) miniature taraqqiyoti davomida bir asar ustida bir necha san’atkorlar ijodiy hamkorlik qilgan, kishilar qiyofasi, yuzini tasvirlovchi musavvir nomiga Chehrakushoy (yuzni ochuvchi) yoki chexra so‘zi qoshilgan. Ayniqsa, Boburiylardan Akbar va Jahongir davrida ayrim shaxslar tasviri bilan bir guruh (ko‘plab ayonlar ishtirokidagi) portret yaratiish taraqqiy etgan. Ushbu portretlardan keyinchalik Yevropalik rassomlar (Rembrand, J. Reynolds va boshqalar) ma’lum darajada o‘rgangan, ilhomlangan.

XX asrning 30-50 – yillarida zamonaviy rang – tasvirdagi Portret rivojlandi. Shu davrda portretning hamma ko‘rinishlari (portret, avtoportret, guruh portret, portret – kartina , tarixiy portret va hokozo)da asarlar yaratildi. L. Nasriddinov, Shamsiro‘y Hasanova, Abdulxaq Abdullayev, O‘rol Tansiqboyev, Malik Nabihev va boshqalar portret san’atining dastlabki na’munalarini yaratdilar va O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib portret janrida ijod qilgan o‘zbek rassomlari bo‘ldilar. 50- 60 – yillardan Portretning diqqatga sazovor na’munalari yaratildi. Misol uchun : 1927-yili O‘rol Tansiqboyevning “Uzbek portreta”, 1940 va 1947 – yillarida V. Kaydalovning “Alisher Navoiy”, 1950- 1972 – yillari Malik Nabiyevning “Abu Rayhon Beruniy , 1951- yili Chingiz Ahmarovning “Mukarrama Turg‘unboyeva”, 1954- yilda N. Qo‘ziboyevning “Yunus Rajabiy”, 1956-yili Rahim Ahmedovning “Keksa kolxozchi portreti”, 1968-yili M.Saidovning “Hamza” va boshqa ko‘plab portretlar bugungi kunda o‘zbek portretchiligi jahon san’ati rivoji fonida o‘z mavqeい va o‘rniga ega bo‘lishiga turki bo‘ldi. Bahodir Jalalov, A. Ikromov, Sobir Rahmetov va boshqalarning asarlarida zamon ruhi Sharq va G‘arb san’ati an’analari sil-silasida o‘z aksini topgan.

Badiiy adabiyotda – personaj tashqi qiyofasining tavsifi, tasviri, badiiy obraz yaratish vositalaridan biri Portret harakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi. Portret adabiyotda qadimdan mavjud. Tasvir vositasi sifatida o‘zgarib takomillashgan. Xalq og‘zaki ijodida inson individuallashgan shaxs sifatida tasvirlanmaganligi uchun uning portreti ham ko‘pincha mavhum, umumiylar harakterga ega. Folklorda portret mifalogik, fantastik yoki an’anaviy tarzda yaratiladi. Shuning uchun aniq ijtimoiy, tarixiy, milliy, individual belgilardan mahrum bo‘ladi. Masalan, “Alpomish” dostonida devlar portreti mubolag‘a bilan berilgan. To‘qson qarich edi. Uning hassasi, Sarhovuzdan katta edi kosasi.

Qadimgi g‘arb va sharq adabiyotlarida ham portret ko‘pincha mavhum, an’anaviy harakterda bo‘lgan. Masalan, g‘azallarda yorning tashqi qiyofasi oy, quyosh, yulduz, tun va kun kabi narsalarga nisbatan ko‘rsatilgan. Realist

yozuvchilar tashqi qiyofani bat afsil tavsiflaydilar, unda davr va hayot tarzi bilan bog‘liq holda ro‘y bergan o‘zgarishlarni aynan aks ettiradilar. Masalan Abdulla Qodiriy va Oybek. XIX asrda Portretning ichki yoki psixologik (ruhiy) portret deb atalgan turi tarqalib, unda personajning harakteri – belgilari va ruhiy kechinmalari majmui olib beriladi (Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov) . Adabiy portret – atoqli shaxs, ya’ni yozuvchi, rassom, jamoat arbobining hayoti va ijodi haqidagi ocherk alohida janr hisoblanadi (Ne’mat Abdullayev, Abdumajid Madraimov).

Ma’lumki har bir davrning usta rassomlari bo‘lgan. Ular portret asarlarida zamondoshlarning go‘zal qiyofasini obrazlarini yaratib, keyingi avlodlarga meros qilib qoldirgan. Uyg‘onish davrining buyuk namoyondasi Leonardo da Vinchining “Avtoportret” , “Jokonda” asari, Velaskesning “Papa Inokenti X” portreti shular jumlasidandir.

Gollandiyalik rassom Rembrandt kabi ko‘pgina Yevropa rassomlari ham ajoyib portretlarni yaratib nom qoldirdi. XIX asrning 1-yarmida yashab ijod qilgan buyuk rus rassomlari O.Kiprenskiy, V. Tropinin, A. Venetsianovlar rus portret san’atining asoschilari bo‘ladilar. Ular XVIII asr portretchilik an’anasini davom ettirib insonni tasvirlashga yanaham zo‘r e’tibor bilan qaradilar, portretlar psixologiyasigakatta ahamiyat berdilar, rassomchilik mahoratini oshirdilar.

O. A. Kiprenskiy portret san’atining muvaffaqiyati shundaki, rassom o‘z zamondoshlarini portretlarida dastavval insonning go‘zal ma’naviy dunyosini, qadr-qiyomatini, uning orzu-o‘ylarini, kechinmalarini tasvirladi. U qator asarlarni, shu jumladan ijodning cho‘qqisi bo‘lgan Aleksandr Sergeyevich Pushkin (1827) portretini yaratdi. Taniqli shoir siymosi bu portretda har jihatdan juda mukammal olib berilgan. Asarda shoirning tashqi qiyofasi bilan birga, undagi ruhiy ko‘tarinkilik, bitmas – tuganmas ijodiy ilhom sohibi ekanligi juda mohirona tasvirlangan. Uning zamondoshlaridan biri V. Troponin bizlarga asosan “Pushkin”, “Gitarachi” , “Bagration” portretlari muallifi sifatida tanilgan. Uning 1823-yilda yaratgan “To‘r to‘quvchi qiz” portreti istarasi issiq, yoqimli, shahlo ko‘z qiz qiyofasini aks ettirdi. Ularning izdoshlaridan biri A. Venitsianovdir. U

birinchi bo‘lib san’atga dehqon obrazlarini olib kirdi va birinchi bo‘lib tabiatning poetik obrazini yaratdi.

20 yillarda yaratgan “Yoz”, “Ekinzorda” asarida – tabiat va inson obrazini, dexqonlarni mehnat jarayonini ifodalab, uyg‘unlashtirib bergan. U “Zaxarka” portretida mehnatkash bolani ichki dunyosini ochib bergan.

XIX asrda realistik portret sohasida Kramskoy, Repin, N. Vasnetsov, V. Serov kabi ulug‘ rus rassomlari ijod qildilar.

N. Kramskoyning N. Nekrasov, P. Tretyakov, L. Tolstoy portretlari va I. Repinning V. Stasov, M. Musogorskiy portretlari bunga yorqin misol bo‘la oladi.

XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek portret san’ati yuksalib rivojlandi. Portret sohasida Lutfilla Abdullayev, Abdulxaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyevlar samarali ijod qilib kelmoqdalar. Lutfilla Abdullayevning “Mulla To‘ychi Toshmuhammedov”, “Y. Ahunboboyev” portretlari realistik an’analarda mohirona tasvirlangan. Abdulxaq Abdullayev 1- o‘zbek portretchi rassomlaridan biri bo‘lib, portret sohasida salmoqli ijod qiladi. U o‘z zamondoshlari ziyolilarni, olimlarni adabiyot va san’at namoyondalarini portret galleriyasini yaratib katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

“Abror Xidoyatov Otello rolida”, yozuvchi “Oybek” portreti muallifining shox asarlaridan bo‘lib, Otelloni o‘ychan boqishi, gavda harakati prretga romantik ko‘tarinkilik ruxini baxsh etgan. Unda yuz ifodasi psixologik xolati moxirona tasvirlangan. Oybek portretida shoir siymosi kompozitsiya jihatidan juda chuqr vamukammal ochib berilgan. Rassom bu asarda inson qiyofasini abadiylashtiribgina qolmay, balki hamma yuksak insoniy fazilatlar egasi, otash qalb xayajonva tashvishga to‘la buyuk yozuvchining jonli portretini yaratdi.

Rahim Ahmedov portret janrida hayotga chuqurroq yondashdi. Inson ichki kechinmalarini, xis-tuyg‘ularini, orzularini, insonning go‘zallik qalbini o‘z asarida ochib beradi. Uning “Ona o‘ylari”, “Surxandaryolik ayol”, “Dehqon portreti” yorqin misol bo‘la oladi.

Malik Nabiyev asosan portret janrida zamondoshlari bilan bir qatorda tarixiy allomalar obrazini ham yaratish ustida ko‘p mehnat qiladi. U 1952-yili “Beruniy”

obrazini yaratdi. 1993-yili buyuk sarkarda “Amir Temur portreti”ni yaratdi. Portret kompozitsiyasini yaratishda rassomlarning o‘ziga xos uslubi mavjud, u adabiy qo‘lyozma, etnografik hujjatlardan unumli foydalanadi.

I.2. Portret kompozitsiyasini yaratish.

Portret kompozitsiyasi insonlar haqida uning go‘zalligi, xarakteri, ideallari va orzu umidlari haqida hikoya qiladi. Misol uchun Rafaelning Sikstin madonnasini yuzidagi mayuslikka qarang, Rembrandtning ko‘pni ko‘rgan qariyalarining dono chehrasini eslang, Rubensning «Izabella»sini yodga oling, Repinning yaratgan portretlarini ko‘ring, har birida individual o‘ziga xoslik va inson xarakterining maftunkor obrazlari yaratilgan.

Portretchi rassom inson xarakteri va uning individualligi ustida ishlaydi. Bu esa rassomdan chuqur bilim talab qiladi, tasvirlanuvchi haqida hamma narsani, uning yuz elementlarini ko‘p tomonlama obrazli holatlarini, eng asosiysi esa, haqqoniy, tushunarli va obrazli ifodalay bilishni talab etadi.

Insonni haqqoniy tasvirlamoq uchun uni diqqat e’tibor bilan uzoq kuzatmoq kerak, shunday holat, shunday pozani, shunday kayfiyatni topish kerakki, xarakterning xususiyati, sifatini to‘liq ifodalash mumkin bo‘lsin. Portretda «qalbni tutish» kerak, «kiyimni va tanani emas».

P.P.Benkovning «tatar qizi» portretiga prototip Teregulovaning o‘z mahalida ulug‘ rassomdan «tezda ishga tushmayotganligi uchun norozi bo‘lgani»da, bu norozilik rassom o‘zi istagan ifoda bo‘lishini kutganligi bois ro‘y bergen edi.

Portretda tasvirlanuvchining individual belgilaridan tashqari uni o‘rab turgan muhit, kasbkori haqida ham eng o‘rinli detallar kiritilishi kerak. Ko‘plab rassomlar portret ishlaydilar, ayrimlari faqat bir kishining xarakterli xususiyatlarinigina ko‘rsatadi, boshqalari portretda zamondoshlarining umumlashgan obrazlarini tasvirlaydilar. Bu holda ikkinchi xil asarlarga tomoshabinning munosabati e’tiborli, ahamiyatli bo‘ladi. Haqiqiy portretchi eng xarakterli qiyofa izlaydi, natijada tevarak-atrofni kuzatish va o‘rganish bilan bitta qiyofada bir necha odamlarning xususiyatlarini birlashtiradi.

Rassom V.Serovning «Verochka Mamontova portreti»da bitta qiz qiyofasi orqali har bir balog‘at yoshida bo‘lgan o‘smir qizlarning umumiy sifatlarini beradi. Rassom bu portretda yoshlikning qaytarib bo‘lmas yoqimtoy, hur poeziyasi haqidagi tasavvurlarini ifoda etadi. SHu bois ham bu asar har bir odam qalbida jonli aks-sado uyg‘otadi, o‘ziga rom etadi. Xuddi shunday fikrlarni Z.Serebryakovaning «Ko‘zgu ro‘parasidagi qiz» (Avtoportret) asariga nisbatan ham aytish mumkin .

Rassom shunday portret kompozitsiyasi topish zarurki tasvirlanuvchining xarakterli belgilarining aniq, tushunarli va obrazini ochib bersin.

Portret kompozitsiyasining tuzilishida insonning tashqi va ichki qiyofasi, uning ruxiyati, shuningdek qo‘li, o‘tirish holati, liboslari, interyerdagi predmetlar asosiy vosita sifatida muhim ro‘l o‘ynaydi. Har bir rassom portert yaratishda o‘z tajribasi, usuliga tayanadi. Bunda har xil kutilmagan holatda, rang va texnikada bajarilgan portretlar dalil bo‘la oladi. Baxodir Jalolovni kinorejissyor “Komil Yormatov” portreti shu fikrimizni tasdiqlaydi.

Shuning uchun portret yaratishda yoshlar ulug‘ portret ustalari tajribasini o‘rganib, ulardan unumli foydalanishlari lozim. Portretchi rassom avval tasvirlanuvchi bilan chuqurroq tanishib, bir muncha davrda uni kuzatib, suhbatlashib, uni asosiy harakteri, xususiyatlarini, ichki va tashqi dunyosini yahshi o‘rganishi kerak. M. Nesterovning shogirdi P. Korin doim bu amallarga sodiq qolib A. Tolstoy, N. Kachalov, M. Nesterov, N. Sar’yan portretlarini shu tarzda yaratdi.

Kompozitsiya quyidagi asosiy talablarga javob berish kerak:

1. Tomoshabin e’tibori tasvirlanuvchining bosh qismi va yuziga qaratilishi kerak. Portretda eng asosiysi - bu yuz va uning ifodasi aynan unda insonning ichki hayoti ko‘rinadi. Tasvirlanuvchining ko‘zi va labini tasviri, uni ifodaviyligi ham juda ahamiyatlidir. Ular odamning ichki mazmunli jumbog‘ini ochib berishning ifodaviy kaliti hisoblanadi.

Portretda qo‘l ham kichik rol o‘ynamaydi. Undan tasvirlanuvchining qo‘liga qarab uning kasb-korini va xarakteri, salomatligini aniqlab olish mumkin. K.Bryullovning «Avtoportreti»da lol qolarli darajada rassomlik kasbini ko‘rsatuvchi qo‘lini ifodalagan.

2. Boshining harakati, burilgan, qiya, yuz mimikasi, qomatning turishi inson xarakterini yuzaga chiqaradi. Odam o‘zining tabiiy holatida xarakterli pozada, xarakatlanadigan manerasida tasvirlanish lozim. Bular hammasi kompozitsion qurishning asoslari hisoblanadi. V.Serovning «M.Ermolova portreti»- pozani qoyilmaqom ifodalash namunasidir.

3. Portretning obrazli traktovkasi o‘rab turuvchi muhit, vaziyat, fon aniqlovchi ahamiyat kasb etadi. Masalan, Ermolova unga yaqin bo‘lgan teatr foyesidagi devor va ko‘zgu fonida tasvirlangan. Fon tomoshabin e’tiborini tortib chalg‘itish kerak emas. Repin qattiq turib, o‘z shogirdlariga maslahat berar ediki, xususiy, mayda narsalarni qurban qilishni ham bilish kerak, shafqatsiz ularni xolstdan chiqarib yuborish kerak, aynan ular portretning badiiy haqqoniyligi g‘alabasi uchun xizmat qiladi.

M.Nesterovning ta’kidlashicha esa, «muvaffaqiyatli fon - yarim yakun degani, uni tasvirlanuvchining yuzi, xarakteri, harakati bilan fanning organik bog‘liqligi alohida zarur. Boshqacha aytganda fon tasvirlovchining hayotini ifodalaydi.

4. Portretning o‘lcham va formati ham tasvirlanuvchining badiiy ifoda vazifasi uchun bo‘ysunishi kerak. Repin har bir portretga mos insonning asosiy belgilari talab etgan formatini izlardi. Format tanlash tasvirlanuvchining pozasiga ham bog‘liq.

Portretni natural o‘lchamdan katta tasvirlash tavsiya etilmaydi, har qanday kartina albatta biroz uzoq masofadan ko‘riladi. Perspektiv qisqarishlar bilan o‘sha masofada tasvir o‘zining, agarki u natural o‘lchamda yoki biroz kichikroq tasvirlangan bo‘lsa tabiiy o‘lchamida ko‘rinadi.

Portret san’atida o‘xshashlik bo‘lishi shart. Natura bilan o‘xshamasa u portret xisoblanmaydi. Portret - eng avvalo xujjat. Lekin bu xujjalilik fotosuratning tasodify xujjaliligidan farqli o‘laroq, insonning eng harakterli belgilarnigina

beradi. Portretdag'i o'xshashlik tashqi belgilarini va odam xarakterining ko'zga tashlanuvchi sifatlarini umumlashtirish natijasida kelib chiqadi.

Formalistik oqim tarafidolari rangtasvir haqida, portret san'atining manbaasi noreal shaxsdir, xususan rassomning odam haqidagi tasavvuri hisoblanadi deb ta'kidlaydilar. Bu bilan ular o'zlarini odam tasvirini chizishda erkinliklarini va tashqi dunyo bilan aloqasizliklarini oqlaydilar. Ularning asarlari tarqoq, ranglar o'ta yorqin, odam obrazi sovuq dekorativ sxema shaklida ko'zga tashlanadi. Ko'zlar go'yo qalb oynasi emas, xuddi boshning «atributi» bo'lib tasvirlanadi.

Portret mazmuniga ko'ra, kompozitsion echimni tanlanishiga qarab: bosh qism portreti, ko'krak qiyofali portret (byust), yarim gavdali portret, to'liq gavdali portret, portret-kartina, guruhli portret, avtoportret, miniatyuraviy portret va boshqalarga bo'lanadi.

BIR FIGURALI KOMPOZITSIYA

Portretlarda konkret bir odamni barcha xarakterining individual xususiyatlari tashqi ko'rinishi, qomatining tuzilishi, mimikasi elementlarida aks etadi va uning qiyofasida ma'lum kategoriyalarga taaluqliligi, uning kasbi yoki jamiyatning u yoki bu toifasiga mansubligi aniqlanadi.

Bunga I.E.Repinning «Ruhoniy» asari yaqqol misol bo'la oladi. Portret nihoyatda o'xshashlik bilan ishlangan va uning yuzi, qo'li va uning xukmron holati rassomning umumlashma obraz yaratishiga olib kelgan. Portretning individual belgilaridan sotsial tip yaratilgan.

Demakki, portretlarda shunday vaziyatlar bo'ladiki, syujetli detallarning kuchayishi uning janrli yoki tarixiy «hikoya» tomonga o'tib borishiga, portret o'z spetsifik xususiyatlarini yo'qotib, oxiri portret-modellar ishning hukmiga ko'ra, janrli yoki tarixiy sohaning qahramoniga aylanishiga olib keladi. Xuddi shunga o'xshab, guruh portretlarda esa ba'zan janr chegaralari buzilib ketadi. Masalan, zamonaviy san'atda janrlar qo'shilib ketib, o'zaro bir-birini boyitganini ham uchratib qolamiz.

Portret bilan bir figurali kompozitsiya o'rtasida janr ramkasini yo'qolib ketishi, ya'ni uning portretdan farqi yorqin ifodaviy an'analar bilan bog'langan

ifodaviylikda ko‘rinadi. Masalan, N.M.Kramskoyning «Qayg‘u», A.A.Deynekaning «Traktorchi» R.Ahmedovning «Ona o‘ylari», «Cho‘pon», G‘.Abdurahmonovning «Xokimiyat egasi», P.Benkovning «Dutorchi qiz», N.Kashinaning «CHildirmachi» asarlarini olish mumkin.

XVI asr nemis portretchi rassomi Kichik Gans Golbeyn asarlarida juda sinchkovlik bilan qimmatbaho toshlar, naqshlar, kashtalarni bemalol chizadi. Bu omillar kompozitsion yaxlitlikka halaqit qilmaydi. Yuz kuchli yorug‘lik kuchi bilan chizilgan, shu boisdan juda aniqlik bilan ishlangan detallar asosiy obrazni yanada ulug‘vor darajada ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Rassom R.Ahmedovning «Ona o‘ylari» asarida 1956 yili Burchmulla qishlog‘ida ikki o‘g‘li urushdan qaytmagan, mehnatda qaddi bukilmagan mardona keksa ayol tasvirlanadi. Onaning ko‘pincha qariyalarga xos o‘ychan, hayolga cho‘mib o‘tirishi, onadan erta etim qolgan rassomni to‘lqinlantirib yuboradi. «Ona o‘ylari» kartinasida figura biroz oldinga chiqqan. YOng‘oq daraxti yonida yostiqqa suyanib tizzasiga qo‘l panjalarini saranjom qo‘yib, hayolga cho‘mgan ayol qiyofasi, kompozitsiya jihatidan juda muvaffaqiyatli topilgan klassik mavqega ega. Ayol yuzidagi chuqur ruhiy xolat, uning g‘amgin yuzidagi katta yorug‘ ko‘zlarida, mehnatda toblangan yuz chehrasida o‘z ifodasini topgan. Gavda «siluet»i aniq, engil ranglardagi manzara fonida, ko‘k, binafsha, pushti, yashil, sariq ranglarda mahorat bilan tasvirlangan.

MAVZULI VOQEABAND KARTINA KOMPOZITSIYASI

Mavzuli rangtasvir eng avvalo, tasviriy san’atning maishiy, tarixiy, batal (jang mavzusi) va mifologik janrlari bilan bog‘lanadi. Bunday kartinalarni «janrli kompozitsiya» deb ham yuritiladi. Janrli kartina kompozitsiyasi g‘oyaviy fikr bilan tasvirlanadi. Har qanday «savodli» joylashtirishga ega kartina ham, biror g‘oyani chuqur hal etmasa, u san’at asari bo‘la olmaydi.

Kompozitsiya ustida ishslashning barcha jarayonlari bu g‘oyaviy fikrni boyitish, har tomonlama qayta-qayta ishslash va realizatsiya qilish jarayoni hisoblanadi.

Mashhur rassomlarning aytishicha insonni to'lqinlantiradigan va tinchlik bermaydigan qandaydir bir g'oya tug'ilgandagina darxol eskiz qilinadi.

Kompozitsiya ustida ishlaganda soxta vazifalardan kelib chiqmaslik va kartinani qandaydir bir mazmuniy geometrik sxemalar asosida qurish kerak. Bunda figuralarni diogonal, aylana, uchburchak asosida qurish va hokazolarni nazarda tutilmoxda. Toki qiziqarli mavzuni topmasdan turib, kompozitsiya bilan shug'ullanish yaramaydi.

Mavzu deganda rassom o'ylagan, o'zining yaratilajak asarida ifodalamoqchi bo'lgan hissiyot va fikrlar, g'oyalar yig'indisi tushuniladi.

Mavzu albatta chuqur bilim doirasida, hayotiy voqealar va tajriba asosida tug'ilishi kerak, mavzu «dolzarblik»ni ro'kach qilib, majburiy va soxta, notabiiy holda tanlanmaydi. Agarki, rassom odamlarga aytiladigan ichki yangilik, qandaydir voqeanning zarur va ahamiyatli tomonini ko'rsatmasa va o'z qobiliyatiga qarab mavzuga kirishmasa, u asar yaratilmaydi. Kompozitsiyada «g'oya» va «mavzu» tushunchasi ba'zan aniq holda yoritilmasligi ham mumkin.

Agarki, mavzu topilib va rassom unga qiziqqan bo'lsa, tarixiy, xujjatli, portret yoki manzara materillarini o'rganish uchun astoydil ish boshlanadi. Bunday materiallarni har tomonlama chuqur o'rganish bilangina ijodiy tasavvurda kartina mazmuni yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Kartinada personajlarning gavda holati, turishi, ularning ruhiy xolati motivlashtirilgan holdagini tasvir mazmunni jonlantiradi va badiiy obrazga aylantiradi. Har bir realistik asarning zaruriy asosi mazmunli voqeani topish bilan belgilanadi. Mazmunni esa, harakatdagi odamlar soni, ularning joylashishi, gavdaning o'lchami, ko'rish nuqtasini tanlash va boshqa shu kabilar belgilaydi.

Bir mavzuning o'zi turli xil mazmunda yoritilishi mumkin. Masalan, urushga qarshi mavzularda garchi barchasining mazmuni, voqeasi har xil bo'lsada bir nechalab mashhur kartinalar yaratilgan.

Rassom uchun mazmun darrovgina topilmaydi, balki o'ylangan mavzuni chuqur va to'liq ochib berish imkonini beruvchi kompozitsion echim izlaniladi, toki, uning ko'ngildagidek aniq, tushunarli ifoda topilmaguncha juda ko'plab

qoralamalar qilinishiga to‘g‘ri keladi. Mazmun topib olingach esa, shu zahotiyoy kompozitsiya eskizi ustida tinimsiz, zahmatli ish boshlab yuboriladi. Birinchi eskizlar kichik o‘lchamda bo‘lgani ma’qul. Asosiy kompozitsion qurilishlarni joylashtirib olish engilroq bo‘lishi maqsadida shunday format tanlanadi.

Eskiz - bu kartina loyihasi, kartina ustida ishlashning birinchi bosqichi hisoblanadi. Eskizda qog‘oz yoki xolstning formati, tasvirni o‘lchami, ko‘rish nuqtasi, gorizont balandligi aniqlab olinadi. Eskizning turli variantlarida echimning eng maqbul, tushunarli ifodasiga erishish lozim, ob’ektlar predmetlarni ishonarli joylashtirish, figuralarni guruhlashtirish, g‘oyaviy markazni topish, tomoshabinni asosiy e’tiborini tortadigan bo‘lishi lozim. Har bir figura yoki detal o‘zini umumiyligi va qoidalari ichida alohida ahamiyatli o‘rnini topishi va barcha vaziyat mavzuni ochib berish uchun hizmat qilishi kerak.

Tasviriy san’atda teatr yoki adabiyotdan farqli o‘laroq faqat bir moment, yoki bir zumlik on tasvirlanadi. Harakat konsentratsiyasi yagona tasviriy momentdagi kompozitsiyaning qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Vaholanki, obrazli echimning kuchi vaqtning ma’lum bir narsasini idrok etish bilan bog‘liq bo‘ladi. Kartina kompozitsiyasi shunday tuzilishi kerakki, tomoshabin undagi voqeanning davomiyligini va bu sahnada nima voqeasi bo‘lib o‘tganini va nima bo‘lishini his qilsin. Mana shu holdagini kartinada hayot harakati beriladi, u quruq va jonsiz, harakatsiz bo‘lib qolmaydi.

Eskizda kompozitsion echim hal etilgach, (personajlarning harakati va holati, ularning psixologik xarakteristikasi, kiyinishi, vaziyati, va boshq) kartina uchun etyud bajarishga o‘tiladi. Bu ishni yaxshiroq bajarish uchun, kartina holatini yoritish maqsadida alohida bir tipaj topish zarur bo‘ladi. Qoralama va etyudlarni albatta kartina voqeasi tasvirlanishiga mos holdadagi vaziyat va yoritilganlik sharoitida bajarilishi shart.

Masalan, M.E.Repin 1878 yilning yozida birinchi marta «zaporojelik kazaklarnig turk sultonining asir bo‘lishga undovchi xatiga javob»i bilan tanishib qoladi. Kazaklarning bu javobidan rassom qattiq xayratga tushadi. Uni erkin, hech qachon xech kim tomonidan zabit etib bo‘lmagan Zaporoe Sechi yurtining

qahramonona ruhiyati qoplaydi. Va u kartina yozish ishtiyoqi bilan yonib yuradi. Birinchi marta Abramsevada kartina mazmunini qoralamasini qiladi. Unda erkin, kulishayotgan kazaklar obrazi ko'rsatiladi. So'ng biroz vaqt o'tgach birinchi rangtasvir eskizini chizadi. Barcha sahnani rassom tomoshabinga yaqinlashtiradi, asosan kazaklarning yuz ifodasi va xarakatlariga, ularning xarakterli qiyofalariga e'tiborni tortadi. Orqa planda quyosh yog'dusida yaltirab turgan Dnepr daryosini tasvirlaydi. Voqeа vaqtı major, tasvirlanayotgan voqeaga mos hayotiy-quvonchli, tantanali ifodasini topgan.

Bu eskiz faqat ijodiy ishning boshlanishi edi. Repin tarixni, davrni, tevarak-atrof muhitni chuqur o'rghanmasdan turib ishni davom ettirishni tasavvur ham qila olmasdi. SHu bois, shogirdi yosh V.Serov bilan 1880 yili Ukrainaga Zaporoe Sechi joylashgan erga keladi.

Reppini kazaklarning xarakterli tiplari qiziqtirardi. Repin deyarli barcha Zaporoe cherkovlariga bordi, ularni ichki ko'rinishi va buyum-anjomlarini chizdi, shuningdek, kazaklarning bayroqlari, miltiq, qilichlari, kiyinishidagi harbiy farqli belgilarini o'rganib chiqdi. Xomaki rasmlar bilan bir necha albomlarni to'lg'azadi

Repin birinchi variantidagi rangtasvir eskizdan farqli holda xolstning formatini kattalashtiradi. Voqeada qatnashuvchi shaxslar sonini ko'paytiradi va ayrim figuralarni butunlay olib tashlaydi. Kazaklarni butun galasi bilan yaxlit biroz orqaroqqa oladi va kartinani mazmunli maishiy ko'rinishda emas, balki qahramonona mazmundagi tarixiy kartina sifatida ko'rsatishga urinadi.

Repin qariya kazaklarning yuzidagi chuqur ajin va tirtiqlarida u eng avvalo donolik, boy hayotiy tajribalarni va qahramonona harakatlar qila oluvchi halq timsolini ko'radi. Masalan, oddiygina, kichik bir stansiyada yashovchi Vasiliy Oleshkoda u, dono va jasur zaporojeliklar atamani Ivan Serkoning xarakterlovchi belgilarini ko'radi va o'z o'rnida kartinaga kiritadi va ko'plab naturadan qilingan etyudlarni do'stlari tanish-bilishlari ichidan o'ziga kerak bo'lган obrazlari uchun qiyofalarini topib tasvirladi va 1891 yili kartinani tugalladi.

V.I.Surikov bejiz aytmagan: «Men avvalo qadimiy ustozlarning kartinalaridagi kompozitsiyada hamma narsani kuzatdim, shundan so‘ng uni ko‘rishga o‘rgandim».

K.Behzodning «Eski machit qurilishi» asari ham mavzuli voqeaband kompozitsiyadir.

I.3.Tasviriy san’atda tarixiy shaxslar obrazi.

Mustaqillik yillarida ijod qilayotgan rassom va haykaltaroshlarimizning yutuqlari shundaki, ular birinchidan erkin ijod yo‘liga o‘tdilar, ikkinchidan milliy badiiy an’analarni davom ettirish, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligini ta’minlash borasida yangi, zamonaviy, ilg‘or tasviriy texnologiyalarni qo‘llab, muvaffaqiyatli asarlar yaratmoqdalar.

Milliy istiqlol g‘oyalari bilan sug‘orilgan portret janridagi bir qancha tarixiy shaxslarni obrazlari yaratildi. Bu asarlar qatoriga Amir Temur, Alisher Navoiy, Jaloliddin Manguberdi, Kamoliddin Behzod, Nodirabegim, Bibixonim, Spitamen portretlarini kiritish mumkin.³

Tarixiy shaxslar obrazini yaratishda rassom asosida mushkul vazifa turadi. Chunki kamdan-kam holatlardan mustasno tarixda ularning tashqi qiyofalari haqida hech qanday dalillar saqlanib qolmagan. Buning natijasida o‘zida zamonasi ruhini timsollashtiruvchi, umumlashma tarzdagi ramziy portretlar vujudga kelmoqda. “Jamoliddin Manguberdi” ga (1997) bag‘ishlangan T. Quryazov va E. Masharipovlarning ishlari, M. Yo‘ldashevning “Alpomishi” (1998-2000) dastomi qahramoniga bag‘ishlangan turkum asarlari, E. Masharipovning “Alpomishi” (1998), Q. Basharovning “Spitamen” polotnolari shular jumlasidandir. E. Masharipov va A. Aliqulovlarning “Amir Temurning To‘xtamishxon ustidan g‘alabasi” (1996), Z. Fahreddinovning “Zafar” (1997), M. Nuriddinovning “Said Baraka Amir Temurni hokimiyat ramzi - nog‘ora va g‘alaba bayrog` bilan taqdirlamoqda” singari syujetli asarlarda Amir Temur

³. R.Hasanov.Tasviriy san’at asoslari. T. 2009. (73 b)

yengilmas sarkarda, o`z xalqining shavkatli o`g`loni sifatida gavdalantirgan. Bu ko`p figurali kompozitsiyalar o`zida ochiq xarakat maydoni namoyon etadiki, Amir Temur doimiy tarzda markaziy “bosh qiyofa tarzida talqin etilgan. Buyuk sarkardaning yaratuvchanlik faoliyati S. Abdullayev polotnolarida aks etgan bo`lib, mazkur asarlarda u buyuk me`moray obidalar fonida tasvirlanadi (“Amir Temur”, “Bibixonim masjid qurilishida”, “Osmoning beg`ubor bo`lsin, buyuk Turkuston”)⁴.

Temuriy malakalarga atalgan turkum portretlar O. Mo`minovning mo`yqalamiga mansubdir. Bu kompozitsiyalarida rassom sharq ayollari (“Bibixonim”, 1997) ga xos romantik ehtirosli jihatlarini talqin etadi. Ch. Ahmarov shoira Nodira (1992) ning jozibali qiyofasini yaratdi.

Amir Temurning jahon tarixida va xizmatlari beqiyosdir. U markaziy Osiyo xalqlarini mo`g`ullar istilosidan ozod etgan. Amir Temur o`zining ham ma`naviy, ham jismoniy kuchini jonajon xalqining og`irini yengil qilishga, shahar va qishloqlarni obod qilishga, chanqab yotgan yerlarga suv chiqarishga, bog`lar yaratishga safarbar qilgan.

Hozirda Sohibqironning xalqimiz uchun ko`rsatgan beqiyos xizmatlari biz minnatdor avlodlari tomonidan munosib taqdirlanmoqda. Uning hayoti va ijodini aks ettiruvchi o`nlab badiiy tasviriy asarlar yaratilmoqda. Tasviriy san`atda Amir Temur timsolini ifodalagan bir qator asarlar ishlangan. Toshkentda Temuriylar muzeyi tashkil etilgan.

Amir Temur timsoli tasvirlangan asarlarda asosan uning harbiy ishlari, ziyofat, ov, qabul marosimlari, qolaversa, diniy tadbirdargi ishtiroki ifodalangan.

Amir Temurning serqirra faoliyati va u haqda bitilgan bir qator asarlarda o`z ifodasini topgan. Ayniqsa, bu borada Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Xotifiyning “Temurnoma”, Salohiddin Toshqandiyning “Temurnoma”, Fosiq Havoiyning “Majmul-I Fasohiy” asarlari e`tiborga loyiqidir. Bu asarlarni o`sha davrning mashhur rassom va xattotlari rang- barang tasvirlar bilan bezatganlar.

⁴N.Abdullayev. O`zbekiston san`ati tarixi. T.”O’FMJ”. 2007. (160-178).

Ularda asosan Sohibqironning jangu jadallari, qabul va yurishlari, diniy mavzular o‘z ifodasini topgan.⁵

Tasviriy san’atda tarixiy shaxslar obrazini Malik Nabihev ijodisiz to‘liq tasavvur qillib bo‘lmaydi. Ayniqsa, sohibqiron Amir Temur obraziga rassomning murojaat qilishi sabablari xususida to‘xtalish joizdir. Taqdir taqozosi bilan 1941 yil iyun oyida Amir Temur dahmasi, so‘ngra Mirzo Ulug‘bek va Bibixonim qabrlari ochilgani ma’lum. Bir oz vaqt o‘tgandan so‘ng qabrdan topilgan ashylar, jumladan Sohibqironning bosh suyagi ham Toshkentdagি O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyiga olib kelingan. Bu haqda musavvir hikoya qiladi: “ M. Gerasimov muzey binosida jahongirning bosh suyagi asosida haykal portret ishlashni boshlab yuboradi. Men bu jarayonni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Nachora, zamon taqozosi ekan. Albatta, bu voqeа rostdan ham dahshat! Sohibqironning arvohi chirqirab, ruhi azob chekkan bo‘lishi tabiiy... O‘sha 1941 – yildan beri ulug‘ sarkarda siymosini yaratish niyati meni bir daqiqa ham tark etgani yo‘q”. Ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tomonlama o‘rganish uchun olib borgan tadqiqotlari, izlanishlari haqida so‘zlab berishlarini so‘raganimizda rassom bizga yana shu fikrlarni bayon qildilar:

“ Shu davr ichida Amir Temur haqida ko‘plab asarlar bilan tanishdim. Mavjud miniatyuralarni, qayerda bo‘lmasin, imkoniyat darajasida qidirib topdim. Men Hindistonning Kalkutta, Bombay shaharlaridagi muzeylarda, Eronning Tehron, Isfaxon, Turkiyaning Istanbul , Ko‘nyo, Izmir va boshqa shaharlarida, Angliyaning “Britaniya” muzeyidagi Amir Temur siymosi turlicha tasvirlangan. Hindistonning Bobur miniatyura maktabi, Behzod (Hirot) miatyura maktabi vakillari chizgan Amir Temur qiyofasi bir – biridan tubdan farq qiladi. Istanbul muzeyidan joy olgan Temur portreti ham butunlay boshqacha.

Xullas Amir Temur siymosini yaratish uchun bir emas, bir necha miniatyura maktabini o‘rganib chiqdim. Tarixiy asarlarni yaratishda avvalo men bobolar ruhidan madad so‘rayman, ana shu narsa menga doimo dalda berib turadi... “.

⁵R.Hasanov.Tasviriy san’at asoslari. T. 2009. (76-78 b).

Haqiqatdan ham rassom bu portret asarini yaratish borasida astoydil izlanishlar olib borgan, yutuqqa yuksak mahorati, mo‘yqalamning kuchi tufayli erishgan.

San’at ixloslari e’tiborini o‘ziga jalb qilgan Amir Temur portretida Sohibqiron sarkarda qiyofasida gavdalantirilgan. Boshiga oltin toj kiygan Temurning nigohi bir nuqtaga qaratilgan. Va jiddiy hayol og‘ushida ekanligi chap qovog‘ini bir oz ko‘tarilib, qoshi tepaga chimirilganidan sezilib turadi. Ulug‘vor fikri bilan bandligidan dalolat beradi. Yuz qiyofasi asosan bug‘doyrang tuslar orqali tasvirlangan. Peshona, yuz qismida paydo bo‘lgan chiziqlar, shuningdek, burun, lab, quloq, soqol, mo‘ylov kabi joylaridagi holatlar Temurning yoshi bir oz o‘tkanligini ko‘rsatsa-da, uning tetik va baquvatliligi saqlanganligi yaqqol sezilib turibdi.

Ayniqsa bu holat yuzda ko‘zga tashlanayotgani pishiqlik, chayirlikni tasvirlanishida yanada aniqroq ko‘rinadi. Jiddiy fikr va hayol bilan bandlidi esa Sohibqironni yanada salobatli qilib ko‘rsatadi. Yelkador, qo‘llari esa bamaylihotir qilichga tayangan holda tasvirlangan. Portretda qo‘l barmoqlari shunday harakterli tasvirlanganki, bu Sohibqiron Temurning mashaqqatli jangu jadallardan mardonavor o‘tganini yana bir bor tasdiqlab turibdi. Sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo‘lagi, derazadan Samarqand shahrining manzarasi ko‘rinadi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, sohibqiron o‘tirgan saltanat kursisining badiiy boyligi, shuningdek Amir Temur egnidagi liboslarining o‘ziga xos qimmatbaho ko‘rinishiga ega bo‘lishi tomoshabinga zavq ulashadi.

Malik Nabihev buyuk inson Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdi. Temurni ilm, san’at ahillariga homiylik qilgan ma’rifat homiysi ekanini ham ifodalay oladi. Xullas, Malik Nabihev sharqona xarakterga ega bo‘lgan Temurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so‘nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.

Bundan tashqari Malik Nabihev buyuk qomisiy olim Abu Rayhon Beruniyning siymosini ham yaratgan. Abu Rayhon Beruniyning portreti 1972-yili har jihatdan mukammal ishlangan.

Mutafakkir Beruniy obrazi rassomning bir necha yillik izlanishlari, portretning bir necha bor eskizlar va ranglamalarini ishlashi natijasida yuzaga kelgan. Shu tariqa asarning bir nechta, bir-biridan farq qiluvchi nusxalari yaratilgan.

1949-yili Al Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun konkurs e'lon qilinadi. Bu konkursda o'ttiz nafardan ortiq O'zbekistonlik va boshqa xalqlarning yirik rassomlari ishtirok etishadi. Shu tanlovda Malik Nabihev ham qatnashdi. Musavvirning asarlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tomonidan ishlangan na'munalarga nisbatan to'laqonli, deb e'tirof etiladi. 1973 yilda esa Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan ikkinchi marotaba konkurs e'lon qilinadi.

Rassom Malik Nabihev Beruniy obrazi ustida izlanishni davom ettirib va nixoyat ikkinchi marotaba ham konkurs g'olib bo'ldi. Bu portret konkursdan so'ng YUNESKOning "Kur'er" jurnali muqovasida va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalarida hamda otkritka, marka, plakat tarzida bir necha bor nashrdan chiqariladi. Portretda ilm muammolarini yechishga chog'langan, vazmin, nigohi olisni ko'zlayotgan alloma xarakteri ifoda etilgan. Rassom ilm sirlarini yechish uchun butun vujudi bilan kirishgan insonparvar olim Abu Rayhon Beruniyning butun salobatini tasvirda gavdalantirdi. Sur'atning keying etaplaridagi kitoblar ilm-fanga bog'liq bo'lgan buyumlar – Beruniyning qomusiy olim va mutafakkir ekanini yanada bo'rttirib ko'rsatishga hizmat qilgan.

Malik Nabiyevning ulkan yutuqlaridan yana biri buyuk shoir, adib, faylasuf va davlat arbobi Zahiriddin Bobur obrazidir. Bobur obrazini yaratish uchun rassom Afg'aniston, Hindiston va boshqa bir qancha xorijiy mamlakatlarda ham bo'ldi. Bobur yashagan, ijod qilgan, jang qilgan joylarni o'z ko'zi bilan ko'rdi. M.Nabiyevning Bobur she'riyati bilan batafsil tanishgani, uning achchiq vasermazmun hayotini mukammal o'rganganligini, Boburning navqiron va to'laqonli gavdalantirgan portreti vositasida his etamiz.

Bobur o'z yurtidan olislarga ketib, ona yurtiga mehru-muhabbatini go'yoki izhor qilayotgan holatini, rassomning jonli bo'yoqlarida namoyon bo'lgan. Xullas,

Bobur portretidagi turli xil bo‘yoqlarda aks ettirilgan tuyg‘ular uyg‘unligi butun borlig‘ingizni ranglar sehri bilan qamrab oladi.

Tarixiy shaxslar obrazini yaratish naqadar mushkul. Bu mushkulliklarni ijodkor tinimsiz mehnat mashaqqatlari bilan dadil yenga olgan. Rassomning ko‘plab portretlarida buyuk siymolar obrazi zamonaga hamohang darajada gavdalanligini ko‘ramiz va beixtiyor hayratlanamiz.

Amir Temur, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Jomiy va Navoiy, Al Roziy, Rudakiy, Al Xorazmiy kabi bir qancha yirik arboblar, olim, shoir, mutafakkirlarning obrazlarini jonli tasvirlaydi.

Tarixiy mavzudagi boshqa asarlarida musavvir xalqparvar qahramonlar obrazini hamda ozodlik uchun bo‘lgan xalq qo‘zg‘olonlari mohiyatini ochib beradi. Bu boradi, ayniqsa, “Spitamen qo‘zg‘oloni” asaridagi jang payti tasviri e’tiborga molik. Rangtasvirchi rassom M.Nabiyev avloddan – avlodga hikoya qilinib kelinayotgan tarixiy voqealarni astoydil o‘rganib, tarix sirlarini jonli ranglarda tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. Ana shunday tarix sirlaridan biri Iskandar Zulqarnayga qarshi jang qilgan so‘g‘diylarning qahramoni bo‘lmish Spitamen edi. Shunga o‘xhash “XVII asrdagi Samarqandda hunarmandlar qo‘zgaloni”, “Jizzaxdagi 16- yilgi qo‘zgalon” deb nomlangan kartinalari ham diqqatga sazovor.

Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy 1441 – yil 9-fevralda, Hirotda tavallud topgan. 1501 yil 3-yanvarda Hirotda vafot etgan. U o‘zbek xalqining nafaqat ulug‘ shoiri va mutafakkiri, balki buyuk olim va davlat arbobi, jahon adabiyotining yirik vakillaridan biridir.

Alisher Navoiy haqida ko‘plab badiiy asarlar yaratilgan. Oybekning “Navoiy” romani, Uyg‘ur va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy dramasi”, L.Batning “Hayot bo‘stoni”, M.Muzahhibning “Alisher Navoiy” portreti, V.Kaydalovning “Alisher Navoiy portreti”, Javlon Umarbekovning “Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning yoshligi”, H.Husniddinxo‘jayev va U. Lunevlarning “Navoiy va Jomiy” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy haqida yaratilgan asarlar orasida V.Kaydalovning “Alisher Navoiy” portreti mashhurdir.

Alisher Navoiy haqida ko‘p yillar davomida ish olib borgan grafik musavvirlardan V.Kaydalov o‘z ijodining ancha qismini Navoiy siymosini yaratishga, uning asarlariga illyustratsiya ishlashga bag‘ishladi. Xususan, uning “Navqiron Navoiy” , “Chor devon”ga bag‘ishlangan “Alisher Navoiy portreti” (qalamtasvir, 1940 y.) ,” Alisher Navoiy Portreti” (rangtasvir 1947 – y.), Navoiy “xamsa”siga ishlangan grafik ishlari (1940 y.) shular jumlasidandir. BU ishlar orasida uning Alisher Navoiy portreti uchun tanlov e’lon qilinishi munosabati bilan yaratgan asari diqqatga sazovordir. (Rasm qo‘yiladi shu yerga) Kaydalov yaratgan portreti portretda Navoiyning 50-55 yoshlar chamasidagi siymosi – kuchli, go‘zal, har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida talqin qilingan bo‘lib, davlat arbobi va shoir timsoli tasvirlangan. Rassom Navoiyning hayotida tez-tez uchrab turgan ko‘pkina fojiyali kunlarni bir chekkaga surib qo‘yib, uni ijodiy zavq-shavqqa to‘la vaqtlariga xos bo‘lgan ko‘rinishda ifoda etgan.

Uning yuzlarida chuqur va qalin ajinlar yo‘q. Soqlida faqat yangi tusha boshlagan oqlar seziladi. Hazrat Navoiyning boqishlari jiddiy, yuzida charchoq alomatlari sezilmaydi, u ayni kuch-quvvatga to‘lgan paytlar. Deraza oldida qo‘yilgan gul ham buni tasdiqlaydi. Ya’ni bu davrlar, shoirning hayoti va ijodining gullagan davri ekanligini bildiradi.

Alisher Navoiy siymosi ko‘plab grafik asarlarda ham o‘z ifodasini topgan. Navoiy mavzusida samarali ijod etgan grafik rassomlardan biri Qutlug‘ Basharovdir. Uning Navoiy mavzusidagi ishlaridan biri shoirning “Xamsa” asariga ishlangan “Alisher Navoiy portreti”dir.

Shunday qilib, Alisher Navoiyga bag‘ishlangan o‘nlab badiiy ijod na’munalarida uning xalqparvar shoir, davlat arbobi siz va biz uchun hamisha ibrat va namuna bo‘lib qolishiga urg‘u berilgan. Biz ana shunday bobokalonimiz borligidan faxrlanamiz. Uning tabarruk siymosi bizni doimo ezgu va olivjanob ishlarga undab turadi.⁶

⁶ R.Hasanov.Tasviriy san’at asoslari. T. 2009. (82-85 b).

II.BOB.TARIXIY SHAXSLARNI YARATISHDA FOTODAN FOYDALANISH.

II.1. Portret kompozitsiyasini yaratishda fotodan foydalanish yo‘llari, usullari, yutuq va kamchiliklari.

Badiiy fotografiya – tasviriy san’atning eng nafis sohalaridan biri hisoblanib bugungi kunda hayotimizda u juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib ijtimoiy madaniy hayotni u siz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Fotografiya XIX asarning juda muhim kashfiyoti bo‘lib bizning mamlakatimizda uning ilk paydo bo‘lishini 1879 – 1940 yillardagi Xudoyberdi Devonovning Xivadagi ilk ijodi bilan bog‘lanishini ko‘rshimiz mumkin. Boshqa san’atlar qatori bu san’at kelgusi avlodlarga juda boy tarixiy meros qoldirgan bo‘lib oddiy xalq xayotiga ma’naviy – madaniy rivojlanishdagi muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

Xorazm vohasidagi minoralarning salobatli, noyob va nodir ko‘rinishlari qiziqarli qilib xaqqoniyligi aks ettirish bilan, fotografiya o‘sha davrni muhrlagan. Voha tabiat, shaharlar ko‘rinishlariga etnografik hujjat sifatida fotografiya guvohlik bera oldi.

“O‘zbek fotografiyasi – 125-yil” antologiyasiga kiritilgan “dala ishlari” , “Islomho‘ja portreti” , “Kalta minor” kabi suratlarida Xudoyberdi Devonov hayot voqeligini fotografiyaning mo‘jizakor tili bilan ko‘rsatib bera olgan. Ushbu foto suratlar yaqin o‘tmishimizdagи tarix sahifalari muhrlangan noyob hujjatli man’ba xisoblanadi. Xudoyberdi Devonov boshlab bergen ishlarni keyinchalik M.Penson, G.Zelmanovich, R.Shamsiddinov kabi ijodkorlar davom ettirib o‘zbek fotografiyasi tarixiga munosib xissa qo‘shdilar.

Mustaqillik yillarida esa o‘zbek fotografiyasi taraqqiyotida yanada yangi sahifalar ochildi. 2002 yilda Badiiy Akademiya negizida Toshkent Fotosuratlari uyi tashkil etilishi, shuningdek Xalqaro badiiy fotografiya tashkilotiga a’zo bo‘lishlik tarixiy voqeaga aylandi.

Xulosa qilib aytganda fotografiya XIX asrning eng muhim kashfiyotlaridan xisoblanib u tasviriy san'atning yana bir mustaqil janr sifatida o‘zini namoyon qilib, keyinchalik u kinomatografiya san'atining paydo bo‘lishini ta’minladi.

O‘z navbatida kinomatografiya bugungi kunda jahonda san'atning eng hammabop ommaviy turiga aylanib u siz xayotingizni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Fotografiya bugungi kunda Rassomlar, Kinorejissyorlarning tarixiy – badiiy filmlar, xujjatli filmlar va uzoq moziydan xabar beruvchi polotnolar, dioramalar va kartinalar yaratishdagi juda muhim ijodkorning izlanishlaridagi ko‘makchi vositasini bajarib bera oladikim biz bunga quyidagicha izoh bera olamiz. Odatda biror bir tarixiy asar yaratish uchun ijodkorga tarixiy –xujjatli adabiyotlarga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi.

Masalan : A. Temur davrida yashab ijod qilgan Alisher Navoiyning ustozি Sharafiddin Ali Yazdiyning fors tilida chop etilgan “Zafarnoma” asari to‘laligicha Sohibqironning avlodi va hayot faoliyatining eng muhim san’alaridan xabar beruvchi tarixiy asar bo‘lib u Temuriylar sulolasining tarixini tasvirlab bera olgan va badiiy asarlar yaratish uchun yetarli darajada to‘liq tarixiy – etnografik man’baa bo‘la oladi deb be’malol hisoblanishi mumkin. Bundan tashqari Ibn Arabshohning “Temur tarixi” kabi asari ham ana shunday muhim manbaabo‘lishi mumkin deb ayta olamiz.

O‘z – o‘zidan bunday obrazlarni yaratishdagi fotografiyaning qanday o‘rin egallashini biz quyidagicha taxlil qilib berishga harakat qilib ko‘ramiz. Azaldan O‘rta Osiyo xalqlari tabiiy – geografik joylashuvi jihatidan keskin – kontenental iqlim ta’siri ostida bo‘lgani uchun , bu yerlik xalqlarning rivojlanishi va taraqqiyotiga ijobiш shart – sharoit bo‘lgan. Madaniyat va san’at rivojlanish jarayonlari 5 ming yillik tarixni o‘z ichiga olgan. Shu sababdan islom dinining 8 asr o‘rtalarida xududimizga tarqalishi arab tiliga va fors tilining arab yozuvi asosiga qurilgan ko‘rinishi 8-9 asrlarda xududimizda ilm – fan va madaniyatni tez fursatlarda rivojlanib uyg‘onish davrigacha olib keldi. Islom dini asoslariга va uni xalqning turmush tarziga mos va xos ravishda fan, madaniyat hamda adabiyot va san’atning keskin ommaning savodliliginи ta’minladi.

Xulosa qilib aytganda endi xudud xalqlarining hayotidagi har bir rivojlanish salnomalari olimlar, shoirlar, diniy – arboblar diqqat – e’tiborida bo‘lib ularning asarlarida turli ko‘rinishda muhrlanib bordi.

Demak endi xalq og‘zaki ijodida ham, san’at va madaniy hayotda ham, tarixni, ajdodlarning urf – odat va qadriyatlarni tarannum qiluvchi manbalarning vujudga kelishini ta’minladi.

Albatta adabiy tasavvur bo‘lgan muhitda ijodkor rassom uchun zaruriy man’ba bo‘lishi tabiiy hol.

O‘g‘zaki man’baning yorqin, tushunarli na’munalari mavjud bo‘lgani holda foto san’ati vositasi bilan tarixiy asarlarni yaratishda biz bilan bugungi kunda yashab turgan Osiyo irqiga man’sub protoplarni izlab topish mumkin.

Prototip deganda biz ijod man’bai bo‘lgan qahramonlarning chexralariga o‘xshash chexralarni nazarda tutilgan man’ba xisoblanadi.

Prototip asosan portret janrida ijod qilayapgan rassomlar uchun ma’lum bir tarixiy qahramon timsolini yaratish uchun tanlangan tipaj xisoblanadi.

Tipaj esa siz bilan bizning oramizda yashab turgan bugungi kundagi bir odam. Temuriylar zamoni tarixi O‘zbekiston tarixida juda muhim asr hisoblanadi. Sohibqiron nafaqat turon zaminida, sarxadlari Gurjiston, Xitoy, Eron kabi mamlakatlarga tutashib ketadigan buyuk imperiya yaratdi.

Chingizzondek bosqinchining hukumronligiga chek qo‘ydi.

Temuriyzodalar davridagi chop etilgan juda ko‘p risolalar o‘sha davr tarixi, etnografiysi, adabiyoti va buyuk imperator vorislarning hukmronlik davrini bizning zamonomizgacha aks ettirgan bo‘lsa o‘sha kitoblarga ishlangan illyustratsiyalar Kamoliddin Bekzod va uning zamondosh rassomlari, qolaversa Behzodning shogirtlari tomonidan “Sharq Miniatyurasi uslubida ishlangan bo‘lib bizga davrning voqeasi – hodisalari, ko‘p tarixda muhim o‘rin tutgan shaxslarning obrazini realistik bo‘lmasada, miniatyura uslubida o‘ziga xos yondashuv bilan ifodalab bergen. Bu esa ijodkor uchun juda muhim va foydalanishga arziydigon faktor hisoblanadi.

Misol qilib iladigan bo‘lsaktasviriy san’at nasroniy diniga mansub bo‘lgan Yevropa mamlakatlari o‘ziga xoslik va shu din salnomalaridan hikoya qiluvchi lavhalar asosida rivojlandi va o‘sha dinga payvand bo‘ldi. Islom dini esa nodir badiiy adabiyot rivojini quvvatladi. Dunyo olimlari Sharq mamlakatlari sheriyatini Yevropa sheriyatidan katta farq bilan ustunligini e’tirof etadilar. Temur tarixini yoritish yo‘lida izlanib uni bizni kunlarimizgacha yetib kelishiga xissa qo‘shtagan olimlar, shoirlar va adabiyotchi arboblarning ko‘pchiligi jumladan : Sh. A. Yazdiy, Ibn Arabshox, Xondamirlar Saroymulkxonim (Bibixonimga) quyidagicha ta’rif berishgan : O‘rta bo‘yli, bodomqovoq, to‘la qomatli, ko‘zlarida donolik alomatlari sezilib turgan. So‘z san’ati bilan yoritilgan va bizga ana shu asosda izlanishlarga fotografiya yordamga keladi. U ifodadagi tipajni biz mushohada qilib olishimizga ko‘maklashadi.

Odatda, xayotda biron bir kishini izlayapgan xuquqni muhofaza qilish organlari oddiy bir rassomchilikdan mutlaqo xabarsiz kishining ta’riflashi bilan fotorobot vositasida qidirilayapgan shaxslarni tez topishga aksariyat murojat qilib muddaoga erishadilar.

Tasavvur dunyosi mukammal rassom esa manashu tajriba asosida fotosyomkalar natijasida Bibixonimning yuz tuzilishini tasvirlashda foydalanib muvaffaqiyatga erisha oladilar. O‘zbekona iffat va soddalik bilan, Yevropadan farqli o‘laroq o‘zlarida moziydagи juda go‘zal va qomatlarining navniholligini hali zamonning oqimidan asrab avaylagan ibratli qizlarimiz va juvonlarimiz orasidan Saroymulkxonimdek mukammallikka, o‘xshashlikka juda yaqin bo‘lgan (tipdagi) minglab chehralar bepoyon yurtimizdan bir talay Bibixonimlar oramizda borligidan dalolat berib turibdi. Bizni fotografiya yordamida besh asr burungi mashhur ajdodlarimizning obrazlarini bemalol ifodalash mumkin

Lekin shuni ham ta’kidlash zarurki kompozitsiya yaratishda fotodan foydalanish rassomni o‘z ustida ishlamaslikka ya’ni dangasalikka, tasavvur dunyosini torayishiga olib kelishi mumkin. Agar rassom biror tarixiy jarayonni o‘z asarida aks ettirmoqchi bo‘lsayu, o‘sha tarixiy jarayonni ko‘rmagan bo‘lsa, tarixiy jarayonlar haqidagi ma’lumotlar u uchun kamlik qilsa, tassavvurida o‘sha jarayon

aks etmasa fotodan foydalanishi mumkin. Fotodan foydalanganda to‘g‘ridan – to‘g‘ri fotodan ko‘chirma qilib ishlash kerak emas, balki fotodan tassavvur dunyosini kengaytirish uchun oqilona foydalanish zarur. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kompozitsiya yaratganda fotodan foydalanishning o‘ziga xos usullari, yo‘llari, yutuq va kamchiliklari bor .

II.2. Bibixonim timsoli.

Sohibqiron Amir Temur davri XIV- XV asrlarning juda suronli davrlariga to‘g‘ri keladi. O‘sha davrlarda bilim olish u yo‘qda tursin, to‘qchilikda umr guzaronlik qilishning o‘zi bo‘lmas edi. Tinimsiz taxt talash, xududlarga hukmronlik qilish bilan ovvora bo‘lgan hukmdorlar xalqning, ulusning hayotiga befarq edilar.

Bahodir To‘rg‘ayning o‘g‘li Temurning bolaligi va xayoti haqida rus va g‘arb sharqshunoslari juda ko‘p tadqiqotlar olib borganlar

Muhtaram olimimiz Turg‘un Fayziyevning “Temuriylar shajarasi” kitobida Xazrat Amir Temurning otalari Amir Muhammad Tarag‘ay Shaxrisabz hokimi (Qadimgi Kesh) bo‘lgan , Amirzoda Temur 19 yoshiga qadar barcha o‘sha zamon shahzodalari egallashi kerak bo‘lgan bilimlar va ko‘nikmalar: bilim olish, jang san’atidan xabardor bo‘lish, diniy ta’lim-tarbiya, davlatni boshqarish kabi fazilatlarga ega bo‘lgan.

O‘n to‘qqiz yoshida otasi uni Joku Barlosning qizi Turmush og‘oga uylantirib qo‘yadi, yana shu yilning o‘zida Amir Qozog‘onning nabirasi, amir Husaynning singlisi Kamoloyga (uni O‘ljaoy Turkon og‘o deb ham atashgan) uylangan. 1356-yilda Turmush og‘odan Jahongir Mirzo, O‘ljaoy Turkon og‘odan Umarshayx Mirzo dunyoga keladi. 1360-yilda Temurning otasi Muhammad Tarag‘ay vafot etadi. Temur endi otasining o‘rniga amirlikni boshqaradi.

Bir qarashda bizning tasavvurimiz va tarixiy manbalarga asoslangan Sohibqiron Temur davri juda keng yoritilgan bo‘lishiga qaramay, ulug‘ sarkarda va davlat arbobining olamshumul bunyodkorlik ishlari bugungi kunda ham dunyo ommasini o‘zining yirik me’morchilik obidalari bilan lolqoldirmoqda. Temuriyzodalarining

dunyo tamadduniga qoldirgan san’at va qurilish durdonalari Turkiston zaminidan Hindistongacha butun sharq zaminini hozirgacha bezab turibdi.

Sohibqiron Amir Temur hayotini Bibixonimsiz tasavvur qilish juda qiyin bo‘lar edi. Saroymulkxonim Chig‘atoy ulusidan bo‘lgan Qozonxonning qizi bo‘lib, 1341 – yil tavallud topgan. Otasi Qozonxon taxtdan ag‘darilib qatl etilganda u hali 5 yoshda edi. 14 yoshida Amir Husayn uni o‘z nikohiga olgandi. Saroymulkxonimni 29 yoshida Temur o‘z nikohiga oladi. O‘sha davr udumlariga asosan Temur Saroymulkxonimning xon avlodiga mansubligini inobatga olib, uni Bibixonim (Katta xonim) etib tayinladi. Yani endi u haramdagi barcha malikalardan ulug‘ hisoblanadigan bo‘ldi. Bunda uning aql-zakovat va fikrlash doirasi kengligi bosh omil bo‘ldi. Bibixonim Amir Temurning uchinchi xotini bo‘lib saroyga kelin bo‘lganda, saroyda Temurning to‘rt farzaandi : Jahongir mirzo, Umarshalayx mirzo, O‘gibegim, Sulton Baxtbegim bor edi. 1366 – yilda uning ikkinchi xotini O‘ljaoy Turkon og‘o kasallikdan vafot etadi. Temurning birinchi xotini Turmush og‘o haqida esa boshqa ma’lumotlar saqlanmagan.

Temur Saroymulkxonimga uylangach ko‘ragon (“kuyov”) bo‘ladi. Kuyovlik, Rasm- rusumlariga ko‘ra, rasman xon bo‘lmasa ham, hokimyatni boshqarish huquqini berardi.

Saroymulkxonim bejiz saroyda katta hurmat-e’tibor va sharafga sazovar bo‘lмаган. Chunki Saroymulkxonim juda aqli, farosatli ayol edi. Siyosatdonlik, insonparvarlik, saxovat bobida ham tengsiz bo‘lib, hokimyatni boshqarish yo‘lida bemalol ishtirok etib, mamlakatning ijtimoiy va madaniy ishlarida faollik ko‘rsatishi yaqqol bilinib turardi.

Tarixchilarining yozmalaridan ma’lumki, Amir Temur Eronga yurish boshlaganda, Isfaxon qamali cho‘zilib ketib, Saroymulkxonimga maktub jo‘natadi. Bu maktubda “Qo‘shinning zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring” degan mazmun aks etgandi. Bibixonim xatga javoban “Siyosatingiz ham tugadimi ?” qabilida javob qaytargan. Amir Temur bundan xulosa qilib, turli suyaklarni kestirib, orqasiga muhr urdirib, vaqtincha pul chiqartirgan, shahar qishloqlardan suyak-pullarga oziq-ovqat sotib olgan, Isfaxon taslim bo‘lgach, suyak pullarni zar pulga almashtirib berilgan.

Chet el elchilarini qabul qilishda ham Bibixonim bevosiyta ishtirok etgan. Temur saroyining dovrug‘i butun Yevropaga ham alohida izzat-hurmat bilan e’tirof etilgan. O‘sha paytda Temur saroyida bo‘lgan Ispan elchisi va tarixchi Klavixo Bibixonimga shunday ta’rif bergan : “ Xamma joy-joyini egallagandan keyin, chodirlar yaqiniga o‘rnatilgan g‘ovlarning biri ichidan bayramda qatnashish uchun sen’orning (Temurning) ulug‘ xotini Kan’o (Bibixonim) chiqib keldi. U oltin gulli qip-qizil libosda bo‘lib, libos yengsiz, yoqasi chuqur o‘yilmagan, faqat boshi chiqib turishiga loyiq va qo‘llarini tiqish uchun mo‘ljallangan o‘ymasi bor, etak tomonlari juda keng edi. Beliga ham hech qanday kesik-pesik qilinmagan, erkin yurishi uchun, etakni 15 tacha ayol ko‘tarib kelardi. Yuziga shuncha ko‘p upa surilgandiki, u qog‘ozdonga o‘xshardi. Bilsam, bu qadar ko‘p upa uni quyoshdan saqlash uchun ekan. Qishda ham, yozda ham uzoq yo‘lga chiqqan hamma oqsuyak xonimlar yuzlarini kundan shunday himoya qilisharkan. Kan’oning yuzi yengil oq to‘r bilan to‘silgan, boshida qizil matodan qilingan qalpoq bo‘lib, u turnirda savashadigan riyarlarning dubulg‘asiga o‘xshar edi. To‘r sal-sal yelkalariga tushib turardi. Ammo bu dubulg‘a juda uzun, uning ko‘pdan-ko‘p yirik, yiltir-yiltir qilgan dumaloq marvaridlari, yoqut- feruza va boshqa turli- tuman, juda chiroyli ishlov berilgan toshlari bor edi. Yelkasiga tushib turgan to‘r ham oltin gulli edi, ustidan juda chiroyli, ko‘p qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan oltin toj bor edi. Uning eng tepasida uchta yoqutdan , ikki barmoqcha keladigan yorqin va favqulodda go‘zal, kuchli yiltiraydigan qurilma bor edi. Qurilmaning uchini bir tirsak balandligida katta jig‘a bezab turar, uning ayrim parqulalari pastga, boshqalari yuzigava ko‘zlarigacha egilib turardi. Bu parqulalar oltin tizimcha bilan bog‘langan, tizimchaning ohirgi uchi toshchali va marvaridli qo‘sh qanotlaridan qilingan oq qilqalamga o‘xshardi. Xonim odimlab kelayotganda bu jig‘a har tarafga hilpirardi. Qop-qora sochlari yelkalariga tushib yoyilib turardi. Boshidagi dubulg‘ani bir necha oqsuyak xonim ushlab olguday hushyor izidan kelardi. Xammasi bo‘lib uch yuzdan ortiq aslzoda Kan’oning ortidan kelardi.”

Xusn-latofatda Bibixonim tengsiz go‘zal bo‘lgan. O‘qimishli, farosatli, aql – zakovati benazr bu xonim tarix sahifalarida tarifu-tasifga molik emas.

Temuriyzodalarining ilm-ma'rifatga oshno bo'lib, kelajakda ulardan buyuk olimlar, davlat arboblari yetishib chiqishiga ham Saroymulkxonimning hissasi behisob. Samarqandda va sultanatning barcha xududlarida madrasalar, masjidlar qurulishi, ilmu-toliblarning saroy tomonidan qo'llab-quvatlab turulishida ham Saroymulkxonimning bevosita bo'lmasada, juda katta ishtiroki borligi doimo boshqalar tomonidan o'z isbotini topgan.

Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishlarida Bibixonim ko'pinchahamrohlik qilgan. Sultanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Bibixonimga oshkora bo'ysunmasada, biroq uning oqilona maslahatlariga o'zida qandaydir extiyoj sezib turgan. Bibixonim Sohibqironni doimo qo'llab-quvatlab, yonida unga rahnomo va maslakdosh bo'lgani o'sha davr tarixchilari salnomalarida tilga olingan. Ibn Arabshohning "Temurnoma"sida ham bunday dalillar ko'p tilga olinadi va ta'riflanadi.

Temurning kengash va qabul marosimlarida katta xotinlari, o'g'illari va nabiralari ham ishtirok etar edilar. Masalan : hijriy 806 (1403 yil) dan beri Samarqandda mehmon bo'lib turgan Ispaniya qiroli Genrix III ning elchisi Klavixo 1404 yil yoz kunlarida Bog'u Dilkushoda o'tkan qabul marosimlaridagi ko'rganlarini shunday tasvirlagan : " Eshik og'alari bizni ikki tarafı gulzor, ustiga qizil qum sepilgan yo'lakdan bog'ning qoq o'rtasida joylashgan qasrga qarab yetaklab bordilar. Qasrga yaqinlashganimizda uning oldida turli-tuman rangda tovlanib turgan favvora va uning yonginasidagi barvasta chinor tagidagi tevaragi marmar panjarali katta suppada adres to'shakka qo'yilgan paryostiqqa yonboshlab yotgan Temurga ko'zim tushdi. Egnida zarbof yaktak, boshida la'l va unjudan, duru-javohirdan qadalgan toqiya...⁷

Temurning yonida uning nabiralari ham bor edilar. Amirzoda Sulton Xusayn, Ulug'bek, Ibrohim Sulton, Muhammad Sultonning o'g'li Johongirmirzo ham bor ekanliklari ta'rif etiladi."

⁷Bo'riboy Ahmedov. Ulug'bek(ESSE). Toshkent 1989.(20-21 bet).

Yuqorida zikr etilgan amirzodalarining tarbiyasida ham Sohibqiron va Saroymulkxonimning hissalari beqiyosdir.

1405 yil fevral oyida Sohibqiron Xitoyga yurish oldidan o‘trorda to‘xtab o‘sha yerdagi beklar va hokimlarning mexmoni bo‘lib bir oy davomida turib qoladi. Sog‘ligi yomonlashib, og‘ir betob bo‘lib, mavlono Badriddinni huzuriga chaqiradi. -Jadiy yulduzi Temurning toley yulduzi ekanligini ro‘kach qilib o‘zi yotgan habgohga tushgan yong‘inga ishora qilib buni tabirini so‘raydi. Lekin jo‘yali javob eshitmaydi. Tobora yomonlashib borayotgan sog‘lidan xulosa chiqarib “Sizlarni tangri taalloning lutfu-marhamatiga topshirdim” – deb “Pirmuhammad ulug‘ farzandimni valiahd qilduk” – degan iborani ishlatadi. Bu bilan Samarqand taxtiga voris belgilanadi. 1405 – yil 18- fevral kuni shom bilan xufton oralig‘ida Sohibqiron Dorilbaqoga Rixlat qiladi.

Bibixonim uchun sinovli kunlar boshlanadi. Toju-taxt uchun nabiralar, o‘g‘illar orasida kurash avjiga chiqadi. Sohibqironning tobutini O‘trordan – Samarqandga ovoza qilmay, dushmanga bildirmay amirzodalar, Ibrohim Sulton, Shayx Nuriddin, Saroymulkxonim kuzatib boradilar. Xalil Sulton bek va amirlarning bevosita ko‘magida 18-fevral kuni Samarqandga kirib borib o‘zini valiahd deb e’lon qiladi.

Saltanat xazinasini qo‘lga kiritgach qolgan barcha jigorporalarini taqib ostiga olib, ulardan qutulish choralarini ko‘ra boshlaydi. Saltanatning barcha viloyatlariga o‘z gumashtalarini yuborib amirzodalarga hech qanday imkon qoldirmaydi.

Saroymulkxonim ana shunda o‘zi bevosita tarbiyalagan Ulug‘bekka quyidagi maktubni bitgan.(Do‘mla Bo‘riboy Ahmedov mashhur kishilar xayotidan kitobida) “ Ulug‘jon jigargo‘sham! – deb yozadi Saroymulkxonim – Mirzo Xalilning niyati buzuq ko‘rinadur. Va yana oning Buxoroda ham odamlari borg‘a o‘xshaydur. Har xolda o‘zingizga ehtiyyot bo‘ling. Menga qolsa o‘sha yerdin tezroq ixroj bo‘lib, ulug‘ otang‘izning oldiga, Hiriga (Hirotga) shoshilganingiz ma’qul” – deb so‘zini yakunlagan.

Ular 7yil ko‘rishmagan otalari Shoxruxmirzo xuzuriga borib omon qolishadi.

Ziji ko‘ragoniyini dunyodagi ilmu fanga ko‘rsatgan ta’siri miqyosi qimmati juda katta . Ana shunday olimu – allomaning ham falakkiyot ilmiga bo‘lgan muhabbatining shakllanishida ham Bibixonimning xissasi va o‘rni bor albatta.

Farzand ko‘rmay temuriyzodalarga o‘z nabirasidek mehr ko‘rsatgan Bibixonim, nafaqat go‘zal, farosatli malika, balki g‘amxor ona va buvihamdir.

O‘sha davr adabiyoti va xalq og‘zaki ijodi habordor bo‘lgan, qolaversa o‘sha davrning o‘zida yashab Bibixonimga zamondosh bo‘lganlar Sohibqironning suyukli va ardoqli xotini Bibixonim to‘g‘risida juda ko‘p ashylar va rivoyatlar bitib ketganlar. Millatning timsoli bo‘lgan Bibixonimni hozirgi zamonda ham faxr va g‘urur bilan tilga olinishi hammamizni quvontiradi va buyuk ajdodlarimizning chinakamiga biz o‘rnak oladigan darajada buyuk bo‘lishganini e’tirof etadi.

Bibixonim tushurilgan hech qanday manba bizgacha yetib kelmagan. Lekin Osiyo millatiga mansubligi, uning gavda tuzulishining mukammalligi chindan ham sarviqomatligi juda ko‘p e’tirof etilgan. Bizgacha yetib kelgan rivoyatlar ham talaygina .

Amerikalik shoir Edgar Po “Temur” nomli dostonida Sohibqironning birinchi muhabbat haqida o‘zgacha iliq ta’rif beradi. Demak butun dunyoga mashhur Edgar Po bu muhabbat haqida yozishi uchun qandaydir turtki albatta bo‘lgan.

Mashhur ijodkorlar odatda shunchaki ularga turtki bo‘ladigan biror manba bo‘lmasa bu darajadagi asarga qo‘l urishmaydi.

Buyuk Temur o‘lim to‘shagida yotarkan, bir umrlik piriga o‘zining birinchi muhabbatiga va bu muhabbat vido chog‘igacha o‘zini tark etmagani borasida so‘zlab beradi.

Sohibqiron Amir Temurdek dono va jasur dunyoni eng madaniyatli va rivojlangan qismini o‘ziga bo‘ysundira olgan buyuk sarkardaga suyukli mahbuba bo‘lish uchun faqat go‘zal ayol bo‘lishning o‘zi kifoya qilmaydi.

Sohibqiron bilan 35 yil turmush qurib 64 yoshida ham unga suyukli bo‘lib qolish uchun, misli ko‘rilmagan iroda, qalban fidoyilik va juda ko‘p hamma odamlarda ham bo‘lavermaydigan insoniy fazilatlarning mujassamligi bo‘lmog‘i darkor.

II.3. Bibixonim siyosini yaratish.

Yetuk badiiy asar yaratishni o‘ziga maqsad qilib olgan yosh ijodkor uchun o‘zbek tasviri san’at maktabi juda boy, amaliy va nazariy jihatdan mukammal mahorat maktabi hisoblanadi.

Sharq miniatyura maktabining asoschilaridan biri Bekzod, o‘zbek realistik san’atini shakllantirgan Benkov kabi o‘z zamonasining ilg‘or va yetuk san’at namoyondalari yaratgan asarlar va ularning izlanishlari asosida shakllangan bir talay ijodkorlarning o‘ziga xos, betakror asarlari dunyodagi eng ilg‘or akademiyalar va san’at maktablari tomonidan yuksak e’tiborga ega. Mana shu tajribalar asosida yosh ijodkorlar uchun bizda yetuk tarixiy, badiiy saviyasi yuksak asarlar yaratish uchun yetarli darajada ashyoviy hamda nazariy, badiiy tajribaga boy merosimiz bor.

Yuqorida imkoniyatlarni nazarda tutib, diplom ishi uchun tanlangan mavzu asosida samarali ijod qilish mumkin. Bibixonim timsolini yaratish uchun, avvalo bizning nazarimizda asarni yaratish uchun ijodkorga kerak bo‘ladigan nazariy va amaliy asoslаримизни rejalashtirib olishimiz lozim bo‘ladi.

Asar g‘oyasi, mazmun mohiyati juda dolzarblik asosiga qurilishini nazarda tutadigan bo‘lsak-u yoshlarni, ya’ni yangi avlodni vatanparvarlik, sadoqat, xalqparvarlik hamda insoniylik fazilatlarini yangi avlodga singdirish va ularni milliy qadryatlarimiz asosida yurtiga sodiq fuqarolar bo‘lib, kamol topishiga turki bo‘luvchi fazilatlarni, ularning ongiga singdirishdek mas’uliyatli maqsadni o‘z oldiga qo‘yishni ilgari surdi.

Ijod jarayoni.

Odatda ijod jarayoni turli janrlarda o‘ziga xoslik xususiyatiga ega . Tarixiy portret yaratish jarayoni ham bundan mustasno emas.

Ijodkor o‘z ijod mahsulini muhlisga, undan so‘ng esa tomoshabinga beruvchi ya’ni taklif qiluvchi.

Oluvchi esa san’at shaydosi, muxlisi yoki oddiy tomoshabin.

Demak ijodkor asarni oluvchiga o‘ta mas’uliyat bilan namoyon qiluvchi shaxs. Bu shaxsdan o‘z kasb mahoratiga ega ijod na’munasi yaratish talab qilinadi. Ijodiy

talab ham mahoratga asoslanadi. Bibixonim portretini yaratish o‘ta qiyin va mas’uliyatli mavzu hisoblanishi vajidan ijodkorlardan avvalo bilimdonlik, topqirlik va o‘z kasbiga nisbatan qalban va aqlan yondashishni talab qilinadi. Ijod jarayonida Bibixonim shaxsidan tasirlanmay turib, biz maqsadga erishish qutqusiga ega bo‘la olmaymiz.

Sarxadlari Turondan boshlanib, Eron, Xitoy, Avg‘aniston, Zakavkaz o‘lkasi sarhadlariga tutashgan buyuk imperatorining suyukli malikasi bo‘lgan Bibixonim Chingiz avlodidan bo‘lib, saroyda voyaga yetgan.

O‘rta bo‘yli, bodom qovoq, yuzi va gavdasi to‘lacha bo‘lgan Saroymulkxonimni Temur eng suyukli xotini deb bilgan. Xatto uzoq yurishlarda ham, o‘zi bilan olib yurgan. Saltanatda Temur yo‘qligi paytlarida, Saroymulkxonim Bog‘i Behishtda elchilarga, beklarga qabul marosimlari tashkil qilgan. Ayol kishi bo‘lishiga qaramay o‘z bilmi, farosati bilan saroy ahliga, imperatorning amaldor va maslahatchilariga o‘z ta’sirini o‘tkaza olgan. Uning samimiyligi, juda oqila ayolligi uchun mulozimlar va davlat arboblari orasida obro‘sisi baland bo‘lgan.

Demak bizga ma’lumotlarning bunday yo‘nalishdagi yig‘indisiga asoslanib, o‘rta yoshlardagi ayollardan foto protatip (o‘xshash nusxa) topish uchun yetarlichcha ma’lumot to‘plab, izlanib tipaj (o‘xshashlik) topish mumkinligini xulosa qilsa bo‘ladi.

Badiiy tasavvur.

Ijod jarayonining boshidan ohirigacha ishtirok etadigan ruhiy quvvat bu – tasavvur. Badiiy tasavvur, qidiruvchan xissiyot, - biror bir obrazni ko‘z oldiga keltirish uchun sayyi xarakatlarning tasavvur qilishga qaratilgan va ijodkorni o‘ziga chaqirib turgan extirosning mavhum shakli. Tasavvurni ta’riflashning, nima ekanini anglashning qiyinchiligi, uning o‘zi aql – idrokni inkor etgani holda, aqlga mos estetik ko‘rinish topish, u mo‘jizaviylik, xayolilik va karomat unsurlarini o‘ziga mujassam etgani holda, aql – idrokni shartlilik bilan aldaydi.

Tushunarli qilib gapirganda ijodkor ya’ni muallif hali hayotda o‘zi ko‘rmagan tarixiy shaxsni ko‘rvuchini o‘z asari bilan o‘sha odam ekanligiga ishontiradi.

Muallif sifatida ijod jarayonini boshlar ekanmiz biz ana shu asar bilan yashab, katta bir imtixondan o'tamiz.

Biz Bibixonim bilan o'sha davr nafasini tushunishimiz kerak bo'ladi.

Biz o'zimiz uchun shunchaki bir qahramonimizga o'xhash nusxa ishlamaymiz, balki mashxur tarixiy obraz yaratamiz. Zero bizni minglab san'at shaydolari va tomoshabin imtixon qiladi.

Xulosa qilib aytganda matoda aks etadigan Bibixonimning moziydan bizga qarab turgan nigohidan tomoshabin xayratlana olsa bu ijodkorning asari o'z maqsad muddaosiga erisha oldi degan ma'noni kashf etadi.

Asar kompozitsiyasiga murojat etarkanmiz Bibixonimning obrazi kartinaning qoq markaziga joylashtirish kerakligini maqsad qilamiz.

Albatta ikkinchi va uchinchi plandagi personajlar hamda manzarada aks etgan xudud Bog'i bexisht bo'lishini ko'zga tutgan holda daraxtlar va moviy osmon ham, 2 – plandagi mulozim kanizalar ham bir butun ritmga bog'langan bo'lishi kerak.

Kartinaning tarixiyligini xisobga olgan holda kompozitsion muvozanat o'ta qonuniyat asosiga qurilgan bo'lishi kerak.

Perspektiva esa bosh qahramon asosiga qurilgan bo'lib qahramonning yanada obrazliroq bo'lishiga halaqit qilmay aksincha yordam berishi kerak.

Albatta asarning yetilishi va soyalarning ham qorong'i bo'lmay yorug' bo'lishi, soyalarni qorong'i bo'lmasligini ta'minlaydi.

Mazmun mohiyatini xisobga olganda kartinadagi tantanavor qabul marosimi tamoshabinga o'sha bayramona kayfiyatni yetkazib ko'rsatib berishi uchun ranglar ekspressiyasidan badiiy tashbeh sifatida improvizatsiya qilishni qo'llash mumkin.

Kartinadagi ranglar yaxlitligi albatta umumiy gammada aks etishi kerak.

Uchta tanlab olingan asosiy ranglar bir biriga mutanosib bo'lib, issiq ranglar kartinadagi holat – kayfiyatni bizga iliq ranglarning soya va yarim soya tarzidagi jo'shqinlikni ko'rsatib berishi uni mazmuniga daxldor bo'lishi ijodkor oldidagi maqsad muddao hisoblanadi.

Men Bibixonim obrazini o'zimga mavzu qilib tanlashdan avval juda ko'p san'at asarlarini XIV – XV asrlarga oid na'munalari bilan tanishganman. Zotan

bizga Kamolliddin Bexzod miniyaturlari o'sha davr nafasi va maishiy hayotdan ma'lum darajada so'zlab bera olsada asar mavzuda bu tahlillarning yetishmasligidan qoniqmay Yevropa san'atining uyg'onish davri XIV – XV asrdagi ayollar obrazlari bilan ham tanishdim. Botichelli, Mikelanjelo, Pizanello, Leonardo da Vinchi kabi ijodkorlarning ayollar obrazi talqinini ham o'rgandim va o'zimga kerakli xulosalar chiqardim. Bizning estetik qarashlarimizdagi ideal bo'la oladigan Osiyo irqiga mansub bo'lgan ayollarning foto tasvirlarini ham o'rgandim. Tarixiy manbalarning mavjudlari bilan tanishdim.

Asarning g'oyasi bilan tanishib yetarli darajadagi ilhom taradudini o'zimda xis qildim. Turli eskizlar tayyorladim.

Portretning eskiz loixasini boshlashdan oldin g'oya haqida ikki og'iz so'z.

Klavixoning 1404 yil yoz oyidagi Sohibqiron Amir Temurning Samarqanddagi "Bog'u Dilkushoda" – bo'lgan qabul marosimini esdalik qilib yozganida – Qasrga kirishdagi marmar suppa va uning yonidagi favvora, ya'na azim chinor xaqida ma'lumot berilgan, Men ana shu tevarak atrofni bo'lajak ijodiy ishim uchun kompozitsion muhit sifatida tanlab oldim.

Bibixonimni esa ana shu qabul marosimidagi ishtiroki tasviri asarning ta'sirchan bo'lishiga yordam beradi. Tantanavor holatdagi Bibixonim qabul marosimida taxtiravonda viqor bilan o'tiribdi. Taxtiravoq ortida esa ayol mulozimlar diqqat bilan xonimlarining rayiga qarab farmon kutib o'tirishibdi. Rasmning uchinchi plani esa kun oqqan ya'ni oqshomga yaqin paytni eslatadi. Daraxtning tanasi va shoxlari orasidan saroy onda sonda ko'zga tashlangan qismlari bilan gavdalansa bahaybat chinor tanasi ulug'verlik, qudrat va qadimiy mustahkam ildizli zaminning ramzi hisoblanadi. Portretning markaziy qismidagi Bibixonim esa insonning bu foniylar dunyodagi eng mukammal ramzlaridan xisoblanadi. Portret uchun tanlangan kompozitsiya markazidagi qahramonni o'zbek millatidan tashqari barcha millat vakillari ham taniydi yoki u xaqida ko'p eshitishgan. Endilikda idrok etuvchiga xayotda real yashab o'tgan Bibixonim emas balki mushoxada, rangtasvir yordamida yaratilgan qahramon obrazi tasvirlangan.

Estetik idrok etuvchi tamoshabin uchun bu tasvir nimalarni hikoya qilishi kerak. Oxir oqibat bu rasm qanday taasurot qoldirishi kerak. Tasviriy san'at qonunlariga rioya qilgan holda badiiy obraz yaratishdan – badiiy adabiyot janridagi esse, roman, poveet kabi ijod na'munasini yaratish ancha osonroq.

Bunga sabab shuki qahramonimiz obrazini bat afsil, mukammal tasvirlash uchun mujazgina bitta palatno kamlik qiladiganday. To‘g‘rirog‘i bitta tasvirda “Mana shu Bibixonim bo‘ladilar” deb idrok etuvchini ishontirish kerak. Ijodkor uchun biz yuqorida bibixonim haqidagi tafsilotlarimiz asosida fikr yuritib qahramonimiz bilan u bosib o‘tgan hayot yo‘lini mulohazaviy tahlil qilib ko‘rshimiz lozim bo‘ladi.

Mulohaza : Ijodkorning badiiy farazi.

Go‘dakligida ya’ni besh yoshida otasi qatl qilingan. O‘n to‘rt yoshida turmushga chiqqan. Hali balog‘atga yetmay turib, boshidan shuncha kechinmalar o‘tgan ayolni bir tasavvur qilib ko‘ramiz. Taqdirning bu ayolning boshiga slogan sinovlarini yengib yigirma to‘qqiz yoshida yana bir sinov: u bo‘lajak jahongir Amir Temurga turmushga chiqadi. O‘ttiz besh yillik temuriylar sulolasining siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik buyuk Temurga umr yo‘ldosh bo‘lish. Bir umr yashab ayol uchun buyuk saodat va burch bo‘lgan onalik baxtidan maxrumlik. Tinimsiz jangu – jadallar, ko‘chib yurishlar, dashtu – sahrolarda Sohibqironni qo‘llab quvatlab unga xamroh bo‘lib, dalda bo‘lib muvaffaqiyat va muvafaqqiyatsizliklarga sherik bo‘lish. Qolaversa Temurning so‘nggi nafasigacha uning suyukli mahbubasi bo‘lish. Va nihoyat Temurning suyukli nabiralariga katta ona bo‘lib, ularni tarbiyalash.

Buyuk Ulug‘bek atigi ikki oy onasini sutidan baxramand bo‘lib Bibixonim qo‘lida, uning mexr – muhabbatga to‘la bag‘rida voyaga yetib falakiyot ilmi va mamlakatni odilona boshqargan buyuk olim va shox maqomiga erishish.

Bu fazilatlarning bir odam timsolida ko‘rish aql bovar qilmas qaxramonlik emasmi?

Badiiy asarni unga shaydo va asar tilini yaxshi tushuna oladigan tomoshabin uzog‘i bilan shu asarni 10 – 15 daqiqa maroq bilan, xayrat bilan tamosha qiladi. Lekin yetuk asar yaratishga yillar ham pisand emas.

Bunday mavzuga yondoshishning o‘zi ijodkorga ilhombaxsh tuyg‘ularni hadya qilib uni sharafli va o‘z paytida juda mas’ulyatli bir ijod bo‘sag‘asida turganligini unga doim eslatib turadi.

XULOSA.

Bizning ajdodlarimiz tarixiga nazar tashlasak dunyodagi barcha mamlakatlar va elatlar ichida juda boy tarixga ega, dunyo tamadduniga eng buyuk allomalari, diniy arboblari, xassos ijodkorlari hamda Osiyo va Yevropaga (svilizatsiyaning) yuksak ijodiy na’munalari yaratgan millat sifatida namoyon bo‘lamiz.

Rus bosqinidan so‘ng bizni boy tarixiy manbalarimiz, boyliklarimiz, san’atning barcha turlariga oid ijod na’munalarimiz talon taroj qilib mamlakatdan olib chiqib ketilgan yoki arxitektura va me’morchilik san’ati obidalari ataylab yaroqsiz holga keltirilganini guvohi bo‘lamiz.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizning birinchi prezidenti muxtaram I. Karimov komunistik mafkuradan, mustamlakachilik zulmidan chetga surib qo‘ylgan milliy qadryatlarimizni tiklash yo‘lida tinmay bosh qotirib tariximiz, o‘zbeklarga xos milliy urf-odatlarimizni tiklash uchun xormay tolmay xukumatimiz va ko‘zga ko‘ringan olim va ziyorilar bilan xamjixatlikda ulkan izlanishlar va bunyodkorlik ishlarini olib borib chorak asrlik qisqa davr ichida 100 yillarga teng ishlarni amalga oshirdilar.

Yoshlarimiz tarbiyasi, salomatligi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ularning bevosita ishtirokini ta’minlovchi amaliy ishlar qilib taraqqiyotga sari bo‘lgan intilishlarimiz uchun puxta zamin yaratildi desam hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ozod va obod diyorimiz qisqa fursatlar ichida borgan sari go‘zallahib, sayqal topib bormoqda.

Sanoatning barcha turlarida, qishloq xo‘jaligida, shaharsozlik, kommunikatsiya, yo‘l qurilish infrotuzilmasi, konlarni o‘zlashtirish kabi barcha

sohalarda ijodiy izlanishlar va dunyo xamjamiyatida o‘zining salohiyatiga ega yuksakliklarga erishish xalqimizning ezgu maqsadi hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlarimizga ta’lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san’atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. O’tmishda yashab o’tgan buyuk vatandoshlarimiz, ulug’ allomalar siyemosini tasviriy san’at asarlarida aks ettirish ijod ahli oldiga ham ma’suliyatli vazifalarni yuklaydi.

Shu sababli ham ular o’rganishni , tahlil qilishni taqozo etadi. Bu uz navbatida xalqimiz ichidan yetishib chiqqan buyuk davlat va fan arboblari, buyuk vatandoshlarimiz haqida yaratilgan va yaratilayotgan tasviriy san’at asarlarini o’qishni o’rganishda , badiiy saviyasi va qiymatini anglashimizda benixoya katta ahamiyat kasb etadi , deb o’ylaymiz. O‘zbekistonda ham yangi ma’naviy-g‘oyaviy yo‘nalishlarning shakllanishi o‘z navbatida, zamonaviy san’atning barcha sohalariga samarali ta’sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g‘oyalari, yangilanish tamoyillari me’morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida, musiqa va tomosha san’atlarida, badiiy va xujjatlari kino hamda, televideniye tizimida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Bundan tashqari bugungi kunda badiiy fotografiya yaratgan san’at asarlarini ham tasviriy san’atda foydalansh keng tus olib bormoqda.

Suvratda muayyan yangitikning bo’lishi yoki asarning original va betakror bo’lishi esa masalaga ijodiy yondashish lozimligini bildiradi. Ya’ni yaratilgan asarda rassom kompozisiya, mazmun, g’oya, rang, elementlarining joylashuvi jihatidan yangicha yondashuvlarga erishmog’i kerak. Suvrat yuqorida qayd qilingan jihatlari bilan avval yaratilgan asarlardan tubdan farq qilsa, ya’ni orginal va betakror bo’lsagina u yuqori baholanadi, alohida e’tirofga sazovor bo’ladi.

Asarning bosh g’oyasi tabiat go’zagligini tarannum etish bo’lsa, unda rassom suvratdagি barcha detallarni o’z g’oyasiga mos ravishda tuzishi, shunga

muvofiq shakl, rang va boshqa jihatlarni tanlashikerak bo'ladi. Suvratdagi hayvonlar, daraxtlar, tog'u toshlar, uylar, soylar, hattoki osmondagi bulutlar ham shakl va rang jihatidan mazmunga mos tarzda tasvirlanishi kerak bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishining mazmuniportret kompozitsiyasini yaratishda fotodan foydalanish, fotografiya va tasviriy san'atdagi yaqinlik, o'xshashlik, dinamika, statika, perspektiva, kompozitsiya, komponovka, rangtasvir asoslarining qo'llanilishidan iborat.

Xulosa qilish kerak portret yaratishda kompozitsiya asoslarining o'rni va ahamiyati eng muhim bo'lim hisoblanadi. Kompozitsiya asoslari tasviriy san'atning barcha tur va janrlarida ishtirok etadi. Bugungi kunda portret kompozitsiyasini yaratishda fotodan foydalanish mumkin. Bu aynan fotodan nusxa ko'chirish orqali emas, balki fotodan foydalanib turli kompozitsiyalar yaratilganda yahshi samara beradi.

Barkamol avlodni tarbiyalashda tasviriy san'at va uning tur hamda janrlarining xozirgi kundagi ahamiyati, rivojlanishi, ayniqsa portret janridagi ilg'or g'oyalarning yuksalishida bitiruv malakaviy ishining mavzusida keltirilgan izlanish va fikrlar ijodning yangicha g'oyalalarini oldinga suradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib men shuni tavsiya qilgan bo'lardimki, bo'lajak soha mutaxassislari kelajak avlodni yuksak saviyali yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalashda tasviriy san'at asarlarini kuzatish, taxlil qilish, fotodan shunchaki ko'chirma sifatida emas, balki ilhom manbai sifatida o'rinli foydalanishni tavsiya qilgan bo'lar edim.

Tasviriy san'atda buyuk tarixiy siymolarning aks ettirilishi- bu yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar, vatanga va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.1.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:”O‘zbekiston”,2000 y.
- 1.2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.:”Ma’naviyat”,2010 y.
- 1.2. Karimov I.A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992 y.
- 2.1. Abdullayev N. San’at tarixi. 2 t. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986 y.
- 2.2. Abdullayev N. San’at tarixi. 2 t. – Toshkent: San’at. T. 2001 y.
- 2.3. Abdullayev N. San’at tarixi elektron o‘quv qo‘llanma T. 2005 y.
- 2.4. Abdurahmanov G‘. Kompozitsiya o‘quv qo‘llanma. T. 2007 y.
- 2.5. AbdurahmonovB. Художественная культура Узбекистана. XX век. – ташкент: Узбекистанб 2000 г.
- 2.6. ApuxtinO.K. Tasviriysan’athaqidasuhbatlar. – Toshkent.: “O‘qituvchi”, 1965 y.
- 2.7. Ahmedov B. Ulug’bek(ESSE). Toshkent 1989.(20-21 bet).
- 2.8. Hasanov R.Tasviriy san’at asoslari. T. 2009. (73 b).
- 2.9. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. T.: “San’at” , 2005 y.
- 2.10. Maxmudov T., Olimov Y. O‘zbekiston san’atida inson omili. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1988 y.
- 2.11. Nabihev A. Tarixiy o‘lkashunoslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979 y.
- 2.12. Oydinov N. “O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavxalar”, Toshkent. O‘qituvchi. 1997.

- 2.13. Oripov B. Tasviriy san'at asoslari. – Namangan, 1994 y.
- 2.14. Oripov B. San'at nazariyasi. – Namangan, 2000 y.
- 2.15. Raxmetov S. Dastgohli rangtasvirda kompozitsiya asoslari. T.:”Sharq”, 2007 y.
- 2.16. O‘zbekiston Badiiy akademiyasining San'at jurnali. 4.2014.

III. Xorijiy manbalar

- 3.1. Группа авторов. История искусств зарубежных стран. Т. 1-3. М. 1963-1964 г.
- 3.2. Группа авторов. История зарубежного искусства. М. 1983.
- 3.3. Гуренко Е. Г. Проблемы художественной интерпретации (философский анализ). – Новосибирск: Наука сибирское отделение, 1982 г.
- 3.4. Искусство стран и народов мира. Краткая художественная энциклопедия. Т. 1-5. М. 1962-1981г.
- 3.5. N.A.Dmitriev. Kratkaya istoriya iskusstv. M.: 1985 g.
- 3.6. Yu. B. Rotenberg. Zapadno Evropeyskogo iskusstva17 veka. M.: 1972g

IV. Internet saytlari

- 4.1. www.google.uz
- 4.2. www.Ziyo-Net.Uz.
- 4.3. www.Artsait.ru.
- 4.4. www.arxiv.uz

Ilovalar.



O. Muinov. Bibixonim portreti.




“ Uvaysiy”



Malik Nabiiev. "Amir Temur"



Orif Muinov. "To'maris" 1998



“Nodirabegim”



Bibixonim. Nuriddin Kalonov.



Saroymulkxonim. Nuriddin Kalonov.



Saroyulkxonim.



Bibixonim. Kinodan lavxa.



Yulduz Rajabova. Bibixonim ro‘lida.



DƯƠNG QUỐC CĂNH

Foydalanilgan foto. Tipaj. Fotorassom : E. Penson, I.V.Kiselyov.



Foydalanilgan foto. Tipaj. Foto rassom: E.Penson, I.V.Kiselyov

Ijod jarayoni.











